

**O‘ZBEKISTON RERSPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 331.141.167

DO‘STYOROVA SADOQAT NORSUBXONOVNA

MA’NAVIYATNI O‘RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Mavzusida
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

5A 111601 – Ma'naviyat asoslari

**Himoya qilishga ruxsat
Magistratura bo‘limi boshlig‘i
_____ O'.Toshev
«____» _____ 2015-yil**

**“Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi” kafedrasi mudiri
_____ dots. X.Maxmanova
Ilmiy rahbar _____ dots. A.Erkaev**

Qarshi –2015

M U N D A R I J A

	Kirish.....	3
I bob.	Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda “ma’naviyat” tushunchasining yoritilishi.....	11
1.	Mumtoz adabiyotda ma'naviyatning talqin qilinishi.....	11
2.	Lug’atlarda va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “ma’naviyat” tushunchasining tahlil etilishi va turlicha yondashuvlarning qaror topishi.....	24
	I bob bo’yicha xulosa	35
II bob	Ta’lim tizimining turli bosqichlarida o‘qitiladigan darsliklarda “ma’naviyat” tushunchasi mazmun-mohiyatining yoritilishi....	37
1.	O‘rta va umumiy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan “Ma’naviyat asoslari” fani doirasidagi o‘quv darsliklari va fan dasturlarining yutuq va kamchiliklari.....	37
2.	Oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistratura bosqichlarida ma'naviyatga oid fanlar o‘quv dasturlaridagi mavjud muammolar....	53
	II bob bo’yicha xulosa.....	65
III bob	Ma’naviyat masalalarini o‘rganishda predmetlararo bog‘liqlikni ta’minlash zarurligi.....	67
1.	O‘rta va umumiy ta’lim tizimida ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar)aro bog‘liqlik.....	67
2.	Oliy o‘quv yurtlarining mutaxassislik yo‘nalishlarida o‘qitiladigan ma’naviyatga oid predmetlararo bog‘liqlik.....	72
	III bob bo’yicha xulosa.....	78
	Xulosa.....	79
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	84

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish maqsadida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda iqtisod bilan bir qatorda ma'naviyatga ham ustuvorlik berilmoqda. Chunki Prezident Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi"¹ – deya ta'kidlaganlaridek, ular uyg'un va mutanosib rivojlanmas ekan jamiyat taraqqiyoti bir yoqlama bo'ladi va turli kamchiliklarga olib keladi.

Jamiyat bilan birga ta'lim-tarbiya tizimi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Bu jarayonda inson tafakkuri chuqurlashib, bilimi boyiydi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy taraqqiyot yangi-yangi fanlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi, ilm-fan takomillashib, har xil nazariyalar, kashfiyotlar yaratiladi. Ular asta-sekin ta'lim tizimiga kiritiladi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida jamiyat ma'naviy hayotini o'rganuvchi alohida yangi ilm – "Ma'naviyat asoslari" fani shakllana boshladi. Chunki ma'naviyat tog'risida aniq va nisbatan mukammal tasavvurlargina ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishda ma'naviy omillardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida va barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviyatning ahamiyatini hisobga olib Islom Karimov o'zining ko'plab asarlari va ma'ruzalarida ma'naviyat to'g'risida fikr yuritadi. Prezidentimiz ma'naviyatni O'zbekistonning milliy tiklanishi va rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etishini, ongimizni, shuurimizni tazyiqdan xalos etmasak o'z kuchimizga, buyuk kelajagimizga ishonch, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun qat'iy irodaga ega bo'lmasak, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, boqimandalik kabi illatlarni yo'qotmasak, tashabbus ko'rsatmasak,

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y., 67-b.

buyuk marralarga intilmasak biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olmasligimizni ta'kidladi.

Ma'naviyat haqidagi barcha fikrlarni mujassamlab Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli alohida asar ham yozdi. Prezidentimiz ma'naviyatga ichki botiniy bir kuch sifatida qarab, unga quyidagicha ta'rif berdi: **"Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"**².

O'tgan davrda ma'naviyatga bag'ishlangan ko'plab monografiyalar, risolalar, maqolalar chop etildi. Ma'naviyat va milliy g'oyaga oid predmetlar ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga kiritildi. Ma'naviyat masalasini o'rganishga, tahlil qilishga uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini hamda boshqa o'quv predmetlari bilan aloqalarini yoritishga qaratilgan turli mualliflar tomonidan yozilgan risola va maqolalar, o'quv qo'llanmalari va darsliklarda ba'zi bir chalkash, o'zaro bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligi quyidagi jihat va holatlardan kelib chiqadi:

Birinchidan, "Ma'naviyat" tushunchasining kelib chiqishi va shakllanish tarixi hali to'liq tarzda o'rganilmagan. Turli tadqiqotchilar tomonidan taklif qilinayotgan turlicha yondashuvlar biri ikkinchisini inkor etib, o'zaro bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar mavjudligi fanda ba'zi bir chalkashliklar yuzaga chiqishiga sabab bo'lmoqda;

Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini o'rganishga keng yo'l ochib berildi va imkoniyatlar yaratildi. Ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviyat va milliy g'oyani o'rganishga bag'ishlangan alohida predmetlar kiritildi. Har bir o'quv predmeti alohida fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun vaqt va tinimsiz izlanishlar talab etadi. Ma'naviyatshunoslik yangi, endilikda o'rganilib

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008. 19-b.

kelinayotgan soha bo'lganligi bois ma'naviyatni o'rganishning metodologiyasi to'liq va mukammal tarzda tizimlashtirilmagan;

Uchinchi, yuqoridagi sabablarga ko'ra, ma'naviyatshunoslik doirasidagi fanlarning o'quv rejalari, dasturlari va darsliklarida ba'zi bir ziddiyatlar ko'zga tashlanadi.

To'rtinchi, uzlsiz ta'lim tizimida ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar)aro bog'liqlikda bir muncha zaiflik mavjudligi ham kuzatiladi. O'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar doimiy ravishda takomillashtirilib, kamchiliklari tuzatilib, predmetlararo bog'liqligi kuchaytirib borilishi kerak.

Beshinchi, davlatimiz taraqqiyoti va kelajagi, barkamol avlodni tarbiyalash, turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan yoshlarni himoya qilish ma'naviy yuksalishimizga, ayniqsa kelajak avlod dunyoqarashiga, uning ijtimoiy mo'ljallariga, qadriyat tizimiga bog'liq. Bu esa ma'naviyatni alohida har tomonlama chuqur o'rganishni, uning yuksalish qonuniyatini yaxshi bilib olib, amaliyotda, tarbiyaviy ishlarda qo'llashni taqozo etadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. “Ma'naviyat” tushunchasi yoritilgan mumtoz adabiyot, lug'atlar, ma'naviyatning tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, ijtimoiy vazifalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'grisidagi ko'plab tadqiqotlar, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar, kitob va risolalar hamda uzluksiz ta'lim tizimida o'rganilayotgan ma'naviyatga doir fanlarning o'quv dasturlari hamda darsliklari tadqiqotning obyekti tashkil qiladi.

“Ma'naviyat” tushunchasining tadqiqotchilar tomonidan talqin qilinishi va metodologik jihatdan anglanishi tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari.

“Ma'naviyatni o'rganishning metodologik asoslari” mavzusini magistrlik dissertatsiyasi ishi uchun olishdan asosiy maqsad:

- turli ilmiy adabiyotlar, ta'lim tizimidagi ma'naviyatga oid fanlar darsliklari va o'quv dasturlarida ma'naviyatning tushuncha sifatida yoritilishi va mazmun-mohiyatini nechog'lik ochib berilganini ilmiy tahlil etish;

- ma’naviyatga oid predmetlarning o’zaro bog’liqligi, uzviyligi va davomiyligini qiyosiy o’rganish orqali mavjud yutuqlarni va muammoli masalalarni aniqlash.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib tadqiqot oldiga quyidagi **vazifalar** qo’yildi:

1. “Ma’naviyat” tushunchasining atama sifatida shakllanishi hamda uning mumtoz va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda, lug’atlarda izohlanishini tahlil etish;
2. Umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o’rganiladigan ma’naviyatga oid fanlar darsliklari va o’quv dasturlaridagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, ularning ilmiy metodologik kamchiliklarini ochib berish;
3. Oliy ta’limning bakalavr va magistratura bosqichida ma’naviyatga oid mutaxassislik va nomutaxassislik yo’nalishlarida o’qitiladigan fanlar o’quv dasturlarini ilmiy-falsafiy, metodologik tahlil qilish va ulardagi mavjud muammolarni ko’rsatib, taklif va tavsiyalar berish;
4. Ma’naviyat masalalarini o’rganishda predmetlararo bog’liqlikdagi muammolarni ko’rsatish hamda tegishli xulosalar va takliflar bildirish.

Ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqot respublikamizda birinchi marta amalga oshirilmoqda. Unda ma’naviyatni ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o’qitishdagi muammolar va ularni minimallashtirish uchun nazariy va ilmiy-metodik xarakterdagi xulosalar chiqarishga urinishlar. Darsliklar va o’quv dasturlardagi xato va kamchiliklarning ilmiy metodologik sabablarini ko’rsatishga harakat qilingan. Bundan tashqari tadqiqotda ma’naviyatga oid fanlarni o’rganishda predmetlararo bog’liqlik masalasi Respublikamizda ilk bora tahlil obyektiga aylantirilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning asosiy masalalari uning oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

1-faraz. Ma’naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati to’liq yetarli darajada ochib berilmagan. Bu o’z navbatida nazariy metodologik chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

2-faraz. Ta’limning turli bosqichlarida o’qitilayotgan ma’naviyatga oid fanlarning o’quv dasturlari va darsliklarini, qo’llanmalarini bir-biridan mustaqil

va bir-birining ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan mualliflar guruhlarini yaratgan. Natijada har xil ilmiy pozitsiyalar va yondashuvlar o'quv dasturlari va darsliklarida kuzatiladi.

3-faraz. O'quv dasturlari va darsliklaridagi ba'zi bir kamchiliklarni bartaraf etish uchun ma'naviyatga oid fanlarni yagona tizimga keltirish, ulardagi takrorlanishlar va paralelizmni bartaraf etish zarur.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida ma'naviyatga iqtisodiyot qatorida ustuvorlik berilishi, ma'naviy tiklanish va rivojlanish bo'yicha Prezident Islom Karimov tomonidan qo'yilgan vazifalar ma'naviyatni tadqiq qilishga ko'plab olimlarini diqqatini jalb qiladi. Birinchi navbatda Yurtboshimiz Islom Karimov ma'naviyat, uning jamiyat taraqqiyotida va milliy tiklanishimizda egallagan o'rni, ma'naviyatning xususiyatlari va o'ziga xos namoyon bo'lish shakllari, mazmun-mohiyati haqida o'z asarlarida³ yoritib berdi. Mustaqillik sharofati bilan ma'naviyatga oid masalalar turli yondashuvlar asosida har tomonlama o'rganilmoqda. Ma'naviyatning tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, ijtimoiy vazifalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tog'risida ko'plab tadqiqotlar, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar paydo bo'ldi. Ular orasidan M. Imomnazarov, A. Erkaev, E.Yusupov, O'. Yusupov, S.Otamurodov, Q.Quronboyev, V.Qo'chqorov, Q.Nazarov, O'.Abilov, Sh.Torayev, T.Primovlar asarlarini ko'rsatish mumkin⁴.

³ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: "O'zbekiston", 1996. // Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. 1-jild. T.: "O'zbekiston", 1996. // Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston", 1997. // Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. T.: "O'zbekiston", 1997. // Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: "O'zbekiston", 1996. // Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. // Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. "Xalq so'zi", 1999-yil 3-fevral. // Karimov I.A. Milliy istiqlof mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: "O'zbekiston", 2000. // Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2000. // Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008.

⁴ Imomnazarov M: Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T.: 1996; Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006; Erkaev A.: Manaviyat – millat nishoni. T.: "Ma'naviyat". 1999; Milliy g'oya va ma'naviyat. T.: "Ma'naviyat". 2002; Manaviyat va taraqqiyot. T.: "Ma'naviyat", 2009; Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov. "Ma'naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti". Xo'jand, 1996; Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: "O'zbekiston", 1995; Otamurodov S. va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma, T.: 2002. Otamurodov Sadulla, Otamurodov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, "O'AJBNT" Markazi, 2003; Nazarov Q. Ma'naviyatshunoslikning dolzarb masalalari. "Muharrir", 2010; Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy

Vaqtli matbuotda va ilmiy jurnallarda e'lon qilingan ma'naviyatga oid har xil mavzudagi maqolalardan tashqari ilmiy risolalar, monografiyalar hamda ilmiy konferensiya materiallari chop etilmoqda. Ayniqsa alohida va milliy g'oya bilan bog'liq holda ko'plab tadqiqotlar, kitoblar va ilmiy risolalar yaratildi⁵. Lekin ushbu jaroyon hali davom etmoqda ma'naviyatning va milliy g'oyaning turli jihatlarini te'ranroq anglab olishga zarurat susaygani yo'q.

Ma'naviyatni o'rganishning va ma'naviy tarbiyaning pedagogik jihatlariga bag'ishlangan T.Primov, M.Hamdanova, E.Umarov va M.Abdullayevlar risolalari⁶, soha tadqiqotchilari tomonidan yozilgan ilmiy, publisistik va ommabop maqolalar⁷ ilmiy jurnallarda, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plamlarida chop etilmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek ma'naviyatning metodologik masalalarini o'rganish, ta'lim tizimida ma'naviyat va milliy g'oya predmetlarini o'qitishda izchillik va predmetlararo bog'liqlikni ta'minlash, ba'zi bir chalkashliklarni bartaraf etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ma'naviyatni o'rganishning nazariy metodologik jihatlarini yuzasidan f.f.n, dots R.Qo'chqorovning "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining o'quv dasturlarini takomillashtirish

omillar. T., "Ma'naviyat", 1999-y.; To'raev Sh. Ma'naviy tahdidlar: falsafiy tahlil. T.: "Muharrir", 2010; Quronboyev Q. va Qo'chqorov V. Milliy g'oya va ma'naviy hayot. T.: "Ma'naviyat" 2014; Qo'chqorov V. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. T.: "Akademiya", 2008.

⁵ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasi. T.: 2001; Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug'at). T.: Yangi asr avlodi. 2002; Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalari. "Akademiya". 2007-yil; Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. T.: "Ma'naviyat", 2002-yil; Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. T.: Yangi asr avlodi. 2001-yil;

⁶ Primov T. Milliy g'oya, yoshlar va ta'lim-tarbiyadagi yangiliklar. (I.A.Karimov asarlari asosida), T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010; Hamdanova M. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008; Umarov E. va Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. T.: Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2005.

⁷ Xususan "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatning o'rni" (Toshkent, Nishon Noshir, 2014) Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plamida quyidagi maqolalar chop etilgan: Valiyev Sh. "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatni o'rni", 232-bet; Mo'minov Q. T. va Isoqboyev A.A "Orta maxsus kasb-hunar ta'lim mussasalari o'quvchi yohlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari", 443-bet; To'raev S.X. va Turdiqulov N. "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviy qadriyatlar", 259-bet; Muhammadiyev D.F. "Barkamol avlodning kamol topishida ta'lim uzluksizligining ahamiyati", 168-bet; Rahimova D. "Yoshlarni globallashtirish muhitida tarbiyalash". "Ommaviy madaniyat" – ma'naviyat kushandasi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida (Toshkent, "Muharrir", 2013); Kenjaev Z. "Ta'lim tizimini isloh qilish – barkamol avlod tarbiyasining muhim vositasi", 111-bet, Nazarova Z. "Musika "degradatsiyasi"ga qarshi pedagogik texnologiyalardan foydalanish", 81-bet.

muammolari”⁸ nomli maqolasi ahamiyatga molik. Ayni paytda “ma’naviyat” tushunchasini mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz adabiyotga murojat etish zarur. Insonning ma’naviy dunyosiga xos bo’lgan xususiyatlar, vositalar hamda ma’naviyatni yoritishga ko’maklashadigan tushunchalarni biz mutafakkir ajdodlarimizning yuksak g’oyalari, falsafiy qarashlari va ular me’ros qilib qoldirgan mumtoz adabiyotlar orqali yanada teranroq anglab, tushunib olamiz. Jumladan mashhur shoir va orif, kalom va tasavvuf ilmining ulug’ bilimdoni Jaloliddin Muhammad Rumiyl ma’naviyat tushunchasini sarbaland cho’qqiga olib chiqqan faylasufdir. Jaloliddin Rumiyl va Alisher Navoiy o’z asarlarida “ma’naviy” tushunchasini va “ma’naviyat” so’zining ma’nodoshi sifatida “ruhoniyat” tushunchasini qo’llaydi⁹. Rumiyl va Navoiy qarashlarida ma’naviyat ko’proq diniy va tasavvufiy mazmun ifoda etgan. Abu Nasr Forobiy “ma’naviylik” atamasi o’rniga “fozillik” atamasini qo’llagan¹⁰. Boshqalardan farqli Forobiy “fozillik”ni diniy mazmunda emas, balki dunyoviy mazmunda qo’llaydi. Komillik, komil insonga xos bo’lgan ma’naviy xususiyatlar Aziziddin Nasafiy¹¹ qarashlarida o’z aksini topgan.

Tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyannig ilmiy metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari tashkil etadi. Tadqiqotda respublikamiz olimlarining nazariy, ilmiy-uslubiy asarlari, maqolalaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo’llanilgan: tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, obyektivlik, vorisiylik va yangilanish, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa dialektik usullar.

⁸ Qo’chqorov R. Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining o’quv dasturlarini takomillashtirish muammolari // Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy g’oyani shakllantirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013. – B.60-64.

⁹ Jaloliddin Rumiyl. Ma’naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. “Sharq” nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999; Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Asarlar, XV jildlik, XI jild, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami, 14-tom. “Mahbub ul-qulub”dan. T.: “Fan”. 1998.

¹⁰ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri, T.: 2012.

¹¹ Aziziddin Nasafiy. Komil inson; Maqsadi aqso, Zubdat ul-haqoyiq.

Tadqiqotni amalda sinab ko'rish maqsadida Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 11-ixtisoslashtirilgan maktab internatining 5-9-sinflarida mashg'ulotlar olib borildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Mazkur ish:

Birinchidan, "ma'naviyat" tushunchasining turli talqinlari, ta'riflari, ularning o'xshash va farq qiladigan jihatlarini, ma'naviyatni o'rganishga nisbatan mavjud turli yo'nalishlarni, ilmiy metodologik pozitsiyalarni aniqlashga yordam beradi;

Ikkinchidan, ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishni yanada takomillashtirishda mazkur ishdan va uning tavsiyalaridan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, ma'naviyatni o'rganish jarayonida predmetlararo bog'liqlik va mantiqiy davomiylik qay darajada ta'minlanganligini va bu boradagi mavjud muammolarni yoritadi;

To'rtinchidan, aniqlangan kamchiliklarni hisobga olinganda o'quv rejalari, dasturlari va qo'llanmalarini yanada takomillashtirish uchun foydali bo'ladi;

Beshinchidan, ish bir vaqtning o'zida ham nazariy tadqiqot, ham amaliy tavsiyalar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur ish kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 90 betni tashkil etadi.

I-BOB. ILMIY-FALSAFIY ADABIYOTLARDA “MA’NAVIYAT” TUSHUNCHASINING YORITILISHI

1.1.Mumtoz adabiyotda ma’naviyatning talqin qilinishi.

Insonning ma’naviy olami to’g’risidagi masalalar barcha davrlar uchun o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lgan. Inson xulq-atvori, ichki-ruhiy kechinmalari, tafakkuri, iqtidori va ijodkorlikka xos bo’lgan xususiyatlarini har bir davr mutaffakkirlari o’z zamonasi taraqqiyot darajasidan va kelajak to’g’risidagi tasavvurlaridan kelib chiqib tahlil qilgan va o’rgangan. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Ma’lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o’z-o’zidan, bo’sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo’lishini hammamiz yaxshi bilamiz”¹².

Aslida inson o’z turmushi va jamiyat hayotini doimo o’zicha idrok etib kelgan. Atrofida sodir bo’layotgan narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglab tushunib olishga harakat qilgan va o’z munosabatini bildirgan. O’rganayotgan narsalarni hayolan yoki aqli, fahm-farosati yordamida turlarga ajratgan, o’xshash narsalarni esa esa turli guruhlariga kiritgan, tahlil qilgan va umumlashtirgan. Ularga umumiy nom berib, sinflarga, tabaqalarga bo’lgan. Shu jarayonda turli xil tushunchalar, atamalar vujudga kelgan. Bunga sabab, birinchidan, inson hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan narsalardan bir qismi uning yashashi, moddiy ehtiyoji bilan bog’liq bo’lgan. Ikkinchidan, moddiy buyumlar qanchalik muhim, zarur bo’lmasin odamlarning bir- biriga bo’lgan munosabati, sodiqligi, qo’llab-quvatlashi, birgalikda harakat qilishi hamda insonning aqli, fahm-farosati, qiziqishi, ichki ruhiy kechinmalari, hayoliy dunyosi va hokazolar ham nihoyatda zarurligini anglab yetgan.

Inson aqliy, ruhiy, hissiy dunyosini, imon-e’tiqodini rivojlantirish jarayonida uni har xil tushunchalar bilan ifodalagan. Ulardan ba’zi tushunchalar ancha umumiy va keng bo’lgan bo’lsa, ba’zi birlari inson ichki dunyosining aniq bir tomonlarini, qirralarini, yoki aniq holatini ifodalagan. Eng umumiy

¹² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. 7-b.

tushunchalardan biri sifatida “ma’naviyat” tushunchasi vujudga kelgan. O’z navbatida ma’naviyatning turli jihatlari, tomonlari, maqomi, bosqichlari ilm-fanda, adabiyotda, falsafada o’z aksini topgan. Masalan: hirs, nafs, ibo, hayo, sadoqat, vafo, imon, e’tiqod, sahiylik, komillik, komil inson, o’zligini bilish, Ollohni tanish, maorif, ma’rifat, haqiqatga intilish va hokazo. Ezgulikni anglatuvchi tushunchalar bilan birga uning muqobili bo’lgan yovuzlik, vijdotsizlik, axloqsizlik, joxillik, yovuzlik, baxillik va hokazo tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Chunki bu tushunchalarsiz inson ezgulikni, ma’naviyatni teran o’rgana olmagan.

Yuqoridagi tushunchalarning hammasi inson ma’naviy dunyosining turli tomonlarini aks ettiradi. Inson umumiy tushunchalardan kelib chiqib xususiy tushunchalarni tahlil qilgan va undagi ba’zi bir qonuniyatlarni, ularni o’ziga xos bo’lgan tarzda namoyon bo’lishini aniqlagan. Ba’zan esa, xususiy tushunchalarni tahlil qilish, o’rganish jarayonida umumiy tushunchalarni yanada konkretlashtirgan va boyitgan. Bu ayniqsa tadqiqotchi olimlarga, adib-mutafakkirlarga xos. “Ma’naviyat” tushunchasi yordamida komil insonning ma’naviy fazilatlarini qanday bo’lishi lozimligi, unga qo’yiladigan talablar, sifatlar aniqlangan. O’z navbatida komil inson haqidagi tadqiqotlar, xulosalar “ma’naviyat” tushunchasini boyitgan. “Ma’naviyat” tushunchasining boshqa tushunchalar bilan o’zaro munosabatlari to’g’risida ham yuqoridagi fikrni aytish mumkin. Masalan: ma’naviyat va nafosat, ma’naviyat va axloq, ma’naviyat va imon-e’tiqod, ma’naviyat va din, ma’naviyat va siyosat, ma’naviyat va huquq va hokazo.

Ko’pgina lug’atlarda va ba’zi bir maqolalarda ma’naviyat tushunchasi “ma’no” (ma’ni) so’ziga oidligiga urg’u berilgan. Lekin mumtoz adabiyotda ma’noga aloqador hodisalarni “ma’naviy” shaklida emas, balki “maoniy” (“ilmi maoniy” – dunyoviy, asosan tabiatshunoslik fanlari va mantiq ilmi) shaklida ishlatilgan. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy Mirzo Ulug’bekka “yulduzlar

ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi”, deb baho beradi¹³.

Antik davr falsafasida ma’naviy hayotni alohida-alohida sohalarga bo’lib o’rganilgan va bu an’ana asta sekinlik bilan G’arb falsafasida ham o’z aksini topgan. Sharqda – islom falsafasida ma’naviy hayot mushtarak holda o’rganilgan. Insonning ma’naviy olamiga xos bo’lgan “axloq”, “iroda”, “ruh” kabi tushunchalar ma’naviyatda mujassamlashtirilgan. Aynan “ma’naviyat” tushunchasining atama sifatida shakllanishiga islom falsafasi, ilohiyot fani – kalom – Qur’oni karim talqiniga bag’ishlangan “ilm at-tafsir”, keyinchalik tasavvuf ta’limoti kuchli ta’sir ko’rsatgan.

Insonning ma’naviy dunyosiga xos bo’lgan xususiyatlar, vositalar hamda ma’naviyatni yoritishga ko’maklashadigan tushunchalarni biz mutafakkir ajdodlarimizning yuksak g’oyalari, falsafiy qarashlari va ular me’ros qilib qoldirgan mumtoz adabiyotlar orqali yanada teranroq anglab, tushunib olamiz. Jumladan mashhur shoir va orif, kalom va tasavvuf ilmining ulug’ bilimdoni Jaloliddin Muhammad Rumiy ma’naviyat tushunchasini sarbaland cho’qqiga olib chiqqan faylasufdir. Uning teran qarashlari namunasi bo’lgan “Ma’naviy Masnaviy” kitobida insoniy haqiqat hamda uning ichki-ruhiy, ma’naviy olami to’g’risida mulohaza yuritilgan.

Atamaning “ma’naviyat” shakli ham aynan Jaloliddin Rumiy ijodi tufayli ommalashgan degan fikrda ham jon bor. Rumiyning “Ma’naviy Masnaviy” asari Yaqin Sharq, Eron, Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistonda mashhur bo’lgan¹⁴.

Rumiy qarashlarida ma’naviyat so’fiylik ta’limotining asosini ifodalaydi. Jaloliddin Rumiy o’zining “Ma’naviy Masnaviy” kitobiga yozgan so’z boshisida unga turlicha g’oyalarni singdirgan va mazmun bag’ishlagan. U eng avvalo “ma’naviy” tushunchasini “din usullari, usulining usuli, Haq taologa

¹³ Amir Temur va Ulug’bek zamondoshlari xotirasida. T.: “O’qituvchi” nashriyoti, 1996-y. 10-b.

¹⁴ Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 1999. 17-b.

va Haqiqatga yetishish sirlarining kashshofi”¹⁵ – deya diniy mazmunda talqin qiladi. Fikrini davom ettirib Rumiyl o‘z kitobini “Ko‘ngillar bog‘i, hikmat va ma‘rifat buloqlari”¹⁶ degan mazmun bilan to‘ldiradi. Bu yerda “ko‘ngillar bog‘i” deb aynan qalb va ma‘nas (**ma‘nas** – sanskrit tilida ”aql” degan ma‘noni anglatgan) nazarda tutilmoqda. “Bu kitob ruhiy bemorlar uchun shifo, g‘ussalarni ketkizuvchi, rozlar hamrozi, sirlar kashshofi, Qur‘oniy haqiqatlarni ochguvchi, rizq-ro‘zlarini, inchunin, ma‘naviy rizqni ham kengaytiruvchi, axloqni har turli qabohat va palidlikdan asraguvchidir”¹⁷, deb baho beradi. Rumiyl “ma‘naviy rizqni ham kengaytiruvchi” deganda ma‘naviy ozuqa, ma‘naviy rizq – haqiqat, ezgulik, adolat, go‘zallik va zavq-shavqdan bahramand bo‘lishni nazarda tutgan.

Jaloliddin Rumiyl asarni nayga murojat qilish bilan boshlaydi. Nay timsolida komil insonning botiniy olamini, mungli kuyi orqali komil inson bu dunyo mashaqqatlaridan nola qilayotganligi, nayning san‘ati uni kuyida bo‘lgani kabi orif kamoloti ham uning ichki-ruhiy va ma‘naviy dunyosida ekanligi, nayning shakli to‘g‘ri va ichi bo‘m-bo‘sh, yolg‘iz naychining ishq bilan to‘lganidek, orif yo‘li (hayoti) ham to‘g‘ri, adolatli, xulqi ibratli va orif ham zolimlik va jaholatdan holi, qalbi ilohiy ishq bilan to‘la ekanligini tasvirlagan:

“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad

Az judoyiho shikoyat mekunad”¹⁸.

(Tarjimasi: Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay, ayriliqlardan shikoyat aylagay. Lisoniy tarjima: Tingla, nay qanday hikoyatlarni so‘zlaydi: u firoqdan, g‘urbatdan shikoyat qilayotir). Ushbu baytning sharhida “nay” komil insonga nisbat berilgani aytilgan¹⁹. Nay qamishdan yasaladi. Tanasidan kesib olib, yo‘nib

¹⁵ Jaloliddin Rumiyl. Ma‘naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. “Sharq” nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 20-b.

¹⁶ O‘sha manba.

¹⁷ Jaloliddin Rumiyl. Ma‘naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. “Sharq” nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 20-b.

¹⁸ O‘sha manba, 22-23-b.

¹⁹ O‘sha manba, 22-23-b.

yasalgan nay o'z qismatidan nola, firoq chekib, taqdiri azal hukmining muqarrar ekanligiga ishora bermoqda. Shu bilan birga Ollohning irodasini tarqatuvchi komil insonning timsoli sifatida ham tahlil qilishimiz mumkin.

Rumiy tushunchasida ma'naviyat – Haq va Haqiqat mohiyati, unga inson nafsdan qutilib, o'zligidan kechib, fano orqali va u bilan birlashishi orqali erishadi²⁰. Odamlar siyrat va mohiyatni anglashga ojizlik qiladi. Shu bois ko'p hollarda ular ko'zga ko'ringan tashqi belgilar, surat-shakllarga qarab hukm chiqaradilar, odatlar, marosimlar, aqidalarga yopishib oladilar, deydi mutafakkir. Mohiyatni idrok etmay tavhid sirini, imon nurini egallash, ilm-ma'rifat qozonish mumkin emas. Xudo haqidagi tasavvurlar turli xil bo'lib, to'liq tasavvur mavjud emas. Faqat qalb ko'zi bilan idrok etadiganlar bu mohiyatga yaqinlashib borishlari, suratga ishqibozlar esa Iloh mohiyatini anglay olmasligini Rumiy o'z kitobida yoritib beradi.

“Peshi ma'niy chist suvrat, bas zabun
Charxro ma'niyash medorad nigun”²¹.

(Tarjimasi: Ma'ni nazdida suvar ne, bas, zabun, charxni ma'nisi tutgaydir nigun. Lisoniy tarjima: Ma'noning nazdida suratning qiymati yo'q. U g'oyatda zabundir. Odatda charxning bosh qismi – boshog'i aylanishi vositasida ip yigiriladi, ya'ni charxning bosh qismi – uning ma'no mohiyati bo'lib, u butun charxni harakatga keltiradi).

“Gardishi in qolabi hamchu sipar,
Hast az ruhi musattar, ey pizar”²².

(Tarjimasi: Ayni qalqondek badanning gardishi. Ey o'g'il, pinhona bir ruhning ishi. Lisoniy tarjima: qalqon kabi inson badani qolipining gardishi yashirin ruhdandir, ey farzandim!).

“Gardishi in bod az ma'niy o'st,

²⁰ Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 1999. 17-b.

²¹ Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. “Sharq” nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 149-b.

²² O'sha manba, 150-b.

Hamchu charxe k-on asiri obi jo'st".

(Tarjimasi: Bodning gardishidir ma'nisidan, misli charxkim aylanur suv izmidan. Lisoniy tarjima: bu ro'zg'or gardishi va harakati janobi Ollohning hikmat va ma'nisidandir. U bir charx kabi irmoq suvidan harakatlanar va ayni shu suvga asirdir).

Keltirilgan ushbu baytlarda insonning ma'no-mohiyati uning jismida emas balki ruhiy, ichkiy olamida ekani va inson taqdiri Olloh tomonidan yaralishi, charxni boshini aylantirmasdan ip yigirib bo'maganidek, hayotning gardishi va harakati Olloh irodasi va hukmiga bo'g'liq ekani aytilgan.

Jaloliddin Rumiylar asarlari va qarashlarini inson ma'naviyatini komillik sari yuksaltiruvchi yo'l, ma'nolar xazinasi deya e'tirof etish o'rinlidir. Rumiya ma'naviyat – bu halollik, bag'rikenglik, komillik va saxovatdir. U asos solgan mavlaviya tariqati boshqa tariqatlardan o'zining e'tiqodiy bag'rikengligi, diniy-falsafiy, mazhabiy hamda tariqat jihatdan ajralib turadi. Shu sababdan Rumiylar hech bir masalaga, jumladan, ma'naviyat masalasiga ham, haqiqiy ma'naviy shaxs darajasiga ko'tarilgan komil insonga ham juda keng va har tomonlama teran qaraydi.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida bir rivoyat keltiriladi: "Bir kun Rumiylar mavlono Sadridin Qazviniya: "Men yetmish uch mazhab bilan birdirman", deydi. Uning bu so'zini Qazviniy kufri deb hisoblab, shogirdlaridan biriga "Sen katta bir izdihom ichida Rumiya mazkur gapni aytgandingizmi, deb so'ra. Agar iqror bo'lsa, og'zingdan kelgancha haqorat qil", deb buyuradi. Shogird bir majlisda savolni berganda, Rumiylar: "Ha, aytganman", deya tan oladi. Shunda haligi shogird qabih so'zlar aytib, Rumiyni haqorat qila boshlaydi. Ammo Jaloliddin Rumiylar hech ham jaxli chiqmay, tabassum qilib: "Men sening aytganlaring bilan ham birdirman", deydi. Mavlono Sadridin Qazviniyning shogirdi o'zi uyalib majlisni tark etadi"²³. Rumiylar uchun inson

²³ Jaloliddin Rumiylar. Ma'naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 5-bet.

qaysi mazhabga mansub bo'lishidan qat'iy nazar uning qalbida haqiqiy ishq bo'lsa, u kamtar va halol bo'lsa, sahiy bo'lsa haqiqiy ma'naviyat egasidir, komil insondir.

Rumiy uchun hatto insoning qaysi dinga mansubligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Insonning qaysi kasb bilan shug'ullanishi yoki din ulamosi, darvesh bo'lishini ham ahamiyati yo'q. Rumiy qalbida haqiqiy ishq yo'q kishilarni, riokor shayxlarni hamda darveshlarni ham ayrim noqobil qiliqlarini, ishlarini tanqid qilgan.

Jaloliddin Rumiyning e'tiqodiy va mazhabiy masalalardagi bag'rikengligi, komillik g'oyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharq adabiyotining Rumiydin keying mumtoz daholari va ular qatori Alisher Navoiy ham uning yuqoridagi an'analarini davom ettirdilar. Haqiqiy ishqni, halollikni, kamtarlikni, saxovatni, ba'g'rikenglikni kuyladilar va aksincha, soxtalikni, riokorlikni tanqid qildilar.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida ham bu atamani so'fiylik ta'limotini ifodalab kelganini ko'rish mumkin:

Munda foniyl bo'lmay ish bo'lmas tamom,
Foniyl ondin topti nazmim ixtimom.
Ham bu daftar ichra Shayxi ma'naviyl
Kim, demish qushlar tilidan masnaviyl
Garchi bu ikki tanosib yer edi,
Nazmima bu taxallus bor edi.²⁴

Bu yerda Alisher Navoiy "Shayxi ma'naviyl" deganda Fariduddin Attorning so'fiylik ta'limotiga urg'u bergan.

Navoiy "ma'naviyat" so'zining ma'nodoshi sifatida "ruhoniylat" tushunchasini ham qo'llaydi:

Chun riyozat raf etib ruhoniylat,
Salb bo'lg'och kimsadin nafsoniylat.
Qolmag'ay ruhoniylatdin o'zga hech,

²⁴ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Asarlar, XV jildlik, XI jild, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 243-b.

Sen taxallufdin bu ma'ni ichra kech²⁵.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari ham aynan inson va jamiyat ma'naviyatiga bag'ishlanadi. Bu asar asosan uch qismdan iborat. Birinchi qism – “Xaloyiq ahvol va a'fol va aqvolining kayfiyatida”, ya'ni kishilarning ahvoli, fe'l-etvori va gap so'zlarining ahamiyati haqida bo'lib, qirq fasldan iborat. Ikkinchi qism – “Hamida a'fol va zamima xisol xosiyatida” – “Taxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida” bo'lib, asosan axloqiy masalalarga bag'ishlanadi. Bu qism o'n bobdan iborat. Uchinchi qism – “Mutafarriqa favoyid va amsol surati”, ya'ni “Turli foydali maslahatlar va ma'qolalar” deb nomlanadi va har xil foydali pandlar hamda hikmatlarni o'z ichiga oladi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh, tabaqa va kasbga oid kishilarning zarur ma'naviy xislatlarini – insonning komilligini tashkil etuvchi xislatlarini, podshohlarning adolatliyligini, ma'naviyatga zid bo'lgan insoniy fazilatlar va uning kamchiliklari, ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamalakatga foydali yoki zarali ekanligini kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etgan. Shu bilan birga yomon fe'l-atvor va xislatlarni tanqid qilish orqali Navoiy jamiyatning ma'naviy parokandalikka tushish sabablarini ko'rsatib bergan. “Ochlar g'izosi bazl va atosi xonidin, yalang'ochlar libosi xizonai lutf va ehsonidin. Mulk bog'in ma'mur qilurg'a abri serob va mulk ahli ko'zin yoruturg'a mehri jahontob. O'zga mulkning raoyo va xalqi aning orzusida va yana kishvar mazlumlari aning adli duosi guftigo'sida. Yaxshi otig'a ulamo ishi rasoil tartibi va yaxshi sifotig'a shuaro varzishi qasoyid tarkibi, mug'anniylar ishtig'oli sanosi uchun surud tuzmak va musanniflar maqoli duosi ohangida nag'ma ko'rguzmak”.

(Ochlarning ovqati odil shohning shavqat va muruvvat bilan dasturxonidan; yalang'ochlarning libosi uning lutf-marhamat xazinasida ehsonidan. U mamlakat bog'ini obod qilishda yomg'ir bulutiday serob;

²⁵ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Asarlar, XV jildlik, XI jild, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 217-b.

mamlakat ahli ko'zini yoritishda jahonga nur sochuvchi oftob. O'zga yurtlarning elu xalqi uni orzu qiladi; boshqa o'lkalarning mazlumlari adolatparvarligi tufayli uni duo bilan tilga oladi. Olimlar uning yaxshi nomini ta'riflab risolalar bitadi; shoirlar uning go'zal sifatini madh aylab qasidalar yozadi. Bastakorlar unga atab kuylar yaratadi; xonanda-sozandalar uni dil-jigardan kuylaydi)²⁶.

Navoiy diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar) to'g'risida chuqur ma'noli fikrlarni bayon etadi: "Bediyonat sudur bid'ati sayyiadur bilo-zarur. Bu nokas agar omiydur fisqu fujur aning komidur. Majlisida nag'manavozlik ilm va taqvo azosig'a – navhasozliq". (Vijdonsiz, harom-xarishdan tortinmovchi, bediyonat sadrlar – hech zarurati bo'lmagan bid'atdek narsadir. Agar bu nokas ilmsiz bo'lsa, butun qilmishi – behayolik, fisqu fasoddir. Uning bazmidagi soz va kuy ohanglari ilm va taqvoga tutilgan azaning motam faryodidir). Shu bilan birga aslida, mansabdor va amaldorlar qanday kishilar bo'lishi kerakligi haqida ham Navoiy o'z mulohazalarini bildiradi: "Sadr kerak ulamog'a dastyor bo'lsa va mashoyixqa korguzor va xizmatkor va sodotg'a mumid va fuqaro xizmatida mujid. Zulm rishtasin uzguvchi va avqof buzug'in tuzguvchi va ziroat kasratida sa'y ko'rguzguvchi". (Aslida, sadr – olimlarga dastyor, shayxlarga xizmatkor, sayidlarga ko'makchi va fuqaro xizmatiga hamisha tayyor bo'lmog'i kerak. Ular zulm rishtasini uzguvchi, vaqf yerlarining buzilganini tuzuvchi va dehqonchilikni avj oldirishga sa'y-harakat ko'rgizuvchi bo'lmog'i kerak).

Masnaviy:

Yo'q ulkim fosiqu xammoru zukka

Ki, buzg'ay garchi bulg'ay xoja dukka.

Rikobi naqshi kimsonlig' sarosar,

To'nida ortiq ondin zebu zavar.

(Sadr buzmas faqat mayxo'r, palidni, U buzg'ay xojani, hatto sayidni. O'zi ayyoru makkordir sarosar, So'zi ko'p yaltiroq, to'n zebu zavar)²⁷.

²⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. "Mahbub ul-qulub"dan. T.: "Fan". 1998. 13-b.

²⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. "Mahbub ul-qulub"dan. T.: "Fan". 1998. 16-b.

“Mahbub ul-qulub”da aynan “ma’naviyat” tushunchasini uchratmasakda, lekin inson ma’naviy dunyosini ochib beradigan xislat va xususiyatlar, tushunchalar aks etgan hamda to’laqonli yoritib berilgan. Alisher Navoiy “vafo”ni ta’riflar ekan, so’zni uning o’z zamonida yo’qolib ketgan bir mavhum ekanligidan boshlaydi: “Vafo ul sifatdurkim, karam va muruvvat xalqni onsiz ko’rub itibdurlar va ani tilamakka adam mulki sori ketibdurlar... Mahbubedur – pok xilqat, juz pok ko’ngulga unsu ulfati yo’q. va ul bo’lg’on pok ko’ngulda qat’o qudurat va kulfat yo’q”. (Karam va muruvvat – xalqni vafodek bir yaxshi sifatdan mahrum holda ko’ribdilar va uni toppish uchun yo’qlik dunyosi tomon ketibdilar... Vafo – shunday bir pokiza ko’ngulli mahbubaki, u tabiati va ko’ngli pok bo’lmagan kimsaga rom va ulfat bo’lmaydi; vafo shunday bir pokzot matlubaki, u zoti toza, tabiati pok bo’lmagan odamga yaqinlashmaydi va unga rag’bat ko’rsatmaydi).

Bayt:

“Kimga qildim bir vafokim – yuz jafosin ko’rmadim?

Ko’rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko’rmadim?”²⁸

(Har kimga bir vafo ko’rsatdim, undan yuz bevafolik ko’rmaguncha qutilmadim; har kim bilan bir mehr-muhabbat muomalasida bo’ldim, ming jabru jafo tortmaguncha xalos bo’lmadim).

Asarda “ma’naviyat” tushunchasi tor diniy mazmunda qo’llanilmagan. Navoiy asarni “Mahbub ul-qulub” – “Qalblar sevgilisi” deb nom berishining o’ziyoq ma’naviyatga bir yoqlama, ya’ni tor diniy nuqtai nazardan yondoshmaganligini ko’rsatadi. Navoiyning bunday yondashuvida biz uning Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi g’oyalarni rivojlantirganini ko’rish mumkin.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ma’naviyatning mohiyatini “fozillik” tushunchasi bilan ochib bergan. Forobiy “ma’naviylik” atamasi o’rniga “fozillik” atamasini qo’llagan. Boshqalardan farqli Forobiy

²⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami, 14-tom. “Mahbub ul-qulub”dan. T.: “Fan”. 1998. 82-83-b.

“fozillik”ni diniy mazmunda emas, balki dunyoviy, mazmunda qo’llaydi. Rumiya ham, Navoiya ham va boshqa mutafakkirlarda “ma’naviy” tushunchasi ko’proq diniy va tasavvufiy mazmunlarda qo’llanilgan. “Fozil” – “fazila” – arabcha so’z bo’lib, “komil” so’zining manodoshi, ya’ni sinonimidir. Forobiy “fozil kishilar” deganda komil insonlarni nazarda tutganligini ko’rish mumkin. Fozil odamlar shahri kishilari baxt-saodatga intilib yashaydilar: “Har bir shaxs baxt-saodatga eltuvchi faoliyat bilan qancha uzoqroq va avvalgidan yanada yaxshiroq shug’ullanaversa uning ko’ngli, ruhiy holati ham shunga muvofiq komilroq, fozilroq bo’lib borad. Kamolot orqali, baxt-saodatga intiluvchi zot qalbi tobora poklanib, yaxshiliklar qilganiga o’zining ham ko’ngli o’sib, zavqi oshib boraveradi”²⁹.

Fozillar shahri hokimiga berilgan o’n ikkita xislat-fazilatlar ma’naviyatni mohiyatini, tushuncha va kategoriyalarini tashkil etadi. Fozillar shahri hokimi sog’lom, fahm-farosatli, nozik didli, aql-tafakkuri keng, zukko, adolatlatparvar, xalqparvar, atrofdagi narsa va hodisalarni tez fahmlab, idrok etishi va mulohaza yuritishi, irodasi baquvvat, izlanuvchan, ijodkor, or-nomusli, jasur hamda o’z nafsini tiya olishi, mol-davlatga ruju qo’ymasligi, amalparast, obro’parast bo’lmasligi aytilgan. Forobiy fozillar shahrining ziddi bo’lgan shaharlarga “johillar shahri, benomuslar shahri, ayirboshlovchilar shahri, adashgan, zalolatdagi, odamlar shahri” ni kiritgan. “Bu shaharlarning vakillari – ayrim odamlar ham fozillarning ziddi bo’lgan odamlardir”³⁰.

Islom falsafasida ma’naviyat tushunchasining shakillanishi bir qancha omillarga borib taqaladi. Birinchidan, Olloh insonni ongli, aqlli mavjudot, tabiatning gultoji, tabiatning va barcha tirik mavjudotlarning egasi etib yaratishiga borib taqaladi. Ushbu ma’noda ma’naviyat insonga Olloh taolo tomonidan ato etilgan qobiliyatlar, iste’dodlar, yaratuvchilik va ijodkorlik salohiyatidir.

²⁹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri, T.: 2012. 45-46-b.

³⁰ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri, T.: 2012.43-b.

Ikkinchidan, inson hatto olam ichidagi kichik olamdir. Shu bois shayx Aziziddin Nasafiy olamni ikkiga bo'ladi: olami sug'ro va olami kubro. Nasafiy insonni "olami sug'ro" ("kichik olam"), ilohiy olam va moddiy olamni birgalikda "olami kubro" ("ulug' olam") deb ataydi. Ulug' olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjud, deydi. Shu tariqa, inson yuqori olam – "olami kubro" ning kuchaytirilgan nusxasi hisoblanadi³¹.

Uchinchidan, insonning yashashdan maqsadi ilohiy ishq ekanligi va bu ishq orqali o'zligidan kechib haq vasliga yetishdir. Bu qarash islom ilohiyoti kalomga emas, balki tasavvuf ta'limotiga tegishlidir. Ishq insonni ma'rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, holi etuvchi muqaddas olov. Ishq solik vujudini kuydirib, ruhini musaffo etadi, solikda tajrid va tafrid (poklanish, yakkalanish) yuz beradi. Shu bois oshiqlar xalqdan chekinadilar, chunki ularning ruhi dunyoviylikni yoqtirmaydi, xilvatni qumsaydi, hamma vaqt o'z mavlosi – Allohi bilan birga bo'lishni istaydi³².

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul - qulub" asarida ishqni uch qismga bo'lgan: birinchi qism – oddiy odamlar ishq, ikkinchi qism – alohida fazilat egalariga xos bo'lgan ishq va uchinchi qism - siddiqlar³³ ishq. "Siddiqlar ishqidurkim, alar haqning tajalliyoti jamolig'a mazohir vositasidin ayru vola va mag'lubdurlar. Va ul mushohada behudlig'ida alardin shuur, alardin maslub. Shuhudlari istig'roqqa yetgan va ul istig'roqdin istihloq maqomin hosil etgan"³⁴. (Mazmuni: Siddiqlar haqning jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdirlar. Ularning haqni ko'z bilan mushohada qilish umidlari o'zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o'tib, halok bo'lish maqomiga ko'tarilgan bo'ladi).

To'rtinchidan, Islom falsafasida komil insonning ma'naviy fazilatlari masalasi yuzasidan turlicha yondashuvlar, qarashlar mavjudligidir. Komil inson

³¹ Komilov N. Tasavvuf. T.: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009. 133-b

³² O'sha manba, 43-b.

³³ **Siddiq** (arabcha-1) to'g'ri, chin, vafodor; 2) hazrati Abu Bakrning laqabi) – haqgo'ylar.

³⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. "Mahbub ul-qulub"dan. T.: "Fan". 1998. 70-b.

tushunchasi va uning ma'naviyatiga berilgan sifatlar birinchi marta shayxi kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin Ibn al – Arabiy (1165 – 1240) tomonidan ishlatilgan. Ibn al-Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli hazrat payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdirlar. Ul zot vujudlarida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Ibn al-Arabi qarashlarida komil inson ilohiy bir kuchga ega bo'lgan ruh. Bundan komil inson Iloh bilan oddiy odamlar o'rtasida vositachidir va bu tushunchani oddiy odamlarga nisbatan ishlatib bo'lmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Shayx Omuliy va Abdulkarim Geloniy qarashlarida ham komil inson bir kayhoniy vujud bo'lib ko'rinadi, uning sifatlari yerdagi foniy odamlar sifatiga o'xshamaydi. Unda bir jamiki g'ayritabiiy kuchlarning majmuini mushohada etganday bo'lamiz. Ammo Shayx Aziziddin Nasafiyning "Komil inson", "Maqsadi aqso", "Zubdat ul – haqoyiq " nomli va boshqa risolalarida komil inson tushunchasi va uning ma'naviy fazilatlari insonni paydo bo'lishi, taraqqiyoti, martabalar topishi bilan bog'liq holda olib qaraladi. Aziziddin Nasafiyning komil inson tushunchasida hayotiy odamga xos bo'lgan belgilar va axloqiy sifatlar aks etadi. "Bilgilki, Komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif"³⁵.

Nasafiy sanagan ushbu sifatlar – yaxshi so'z, yaxshi fe'l va yaxshi xulq Zardushtiylik dinidan olingan. Zardushtiylikda ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal umuminsoniy axloqiy qadriyatga aylangan, inson axloqiy ma'naviy qiyofasining asosiy omili va asl mohiyatini tashkil etadigan g'oyalardir. Shu o'rinda Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridagi bir fikr diqqatga sazovor: "Avestoning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun

³⁵ Komilov N. Tasavvuf. T.: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009.132-133-b.

ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rishimiz mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni ezgu niyat, ezgu so'z va ish birligini jamyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir"³⁶.

“Ma'naviyat” atamasi asta-sekinlik bilan so'fiylik ta'limotini ifodalashi, diniy mazmun kasb etish bilangina qotib qolmasdan, balki tushunchaning atama sifatida mazmuni tobora boyib, shakllanish va rivojlanish bosqichlari davom etib, endilikda u insonning ruhiy va aqliy olamini, ijodkorlik qobiliyatini, axloqiy, huquqiy, falsafiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlari va tushunchalariga nisbatan qo'llanila boshlandi. Falsafaga oid lug'atlar va turli izohli lug'atlarda, ayniqsa mustaqillikdan keyingi lug'atlar va aynan ma'naviyatga doir izohli, ilmiy-ommabop lug'atlarda ”ma'naviyat” tushunchasi va uning o'zagi bo'lgan “ma'ni”, “ma'no”, “ma'naviy” tushunchalari mazmuni ochib berilib, uning ilmiy tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati yanada boyib borayotganligini ko'rish mumkin.

1.2. Lug'atlarda va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “ma'naviyat” tushunchasining tahlil etilishi va turlicha yondashuvlarning qaror topishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin “ma'naviyat” ilmiy tushuncha sifatida tahlil qilinib, o'rganila boshlandi. Avvalo “ma'naviyatning o'zi nima?” degan savol qo'yildi. Inson va jamiyatning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha ijtimoiy-gumanitar soha (fanlar: til, adabiyot, tarix, dinshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika...) mutaxassislari oldiga mazkur masalaga ilmiy yondashib javob topish muammosi vujudga keldi.

Ma'naviyat masalalari hamda ta'lim tizimida “Ma'naviyat asoslari” fanini o'qitishni joriy etish va yanada takomillashtirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. 1997-yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv

³⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008. 32-b.

yurtlarida “Ma’naviyat asoslari” fani o’qitila boshlandi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to’g’risida”gi PF – 1331-son Farmoyishi³⁷ asosida “Milliy istiqlol g’oyasi” va “Ma’naviyat asoslari” fani uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o’qitish joriy etidi. “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuzulib, barcha viloyatlarda, shahar va tumanlarda uning bo’limlari ochildi. Prezidentimizning 2006-yil 25-avgustdagi “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi Qarori³⁸ chiqarilganligi ham bu mavzuga nisbatan olimlarimizning e’tiborini yanada kuchaytirdi.

Shuni ta’kidlab o’tish joizki, “sovet davrida o’zbek tilida chop etilgan “Filosofiya lug’ati”da bu tushunchaga o’rin ham berilmagan. Vaholanki, “ma’naviyat” va uning o’zagidan yasalgan “ma’naviy” tushunchalarning qo’llanish doirasi keskin kengayib, ularning lug’aviy va terminologik mazmunlari shunchalik boyib bormoqdaki, bu ma’naviyatni alohida ilmiy tushuncha sifatida o’rganishni, uning madaniyat, ong, tafakkur, dunyoqarash, ruhiyat hamda badiiy, siyosiy, axloqiy qadriyatlar va h.k. tushunchalar tizimidagi o’rnini aniqlashni, ular bilan o’zaro munosabatlarini tahlil qilishni taqozo etmoqda”³⁹.

1969-yilda nashr etilgan “Farhangi zaboni tojiki” lug’atida “ma’naviyat” – “ma’naviyot” olami fikri va ruhi, ya’ni kishining ichki ruhiy va fikriy olami deb talqin qilingan va unga misol tariqasida “Axloqi Nosiriy” dan parcha keltirilgan: “Ma’naviyati inson mab dai surati vujud i na’viyati o’s t”⁴⁰. (Mazmuni: inson ma’naviyati uning hayoti mazmunining yangilanishidir (hayot tarzining o’sishidir)). Lug’atda “ma’naviy” sifatlanishining birinchi mazmuni ma’niga

³⁷ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to’g’risida”gi PF – 1331-son Farmoyishi

³⁸

³⁹ Erkaev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2009. 7-b.

⁴⁰ Farhangi zaboni tojiki. 1-jild, Moskva. 1969. 665-b.

mansub, ikkinchi mazmuni inson fikri va ruhi, ya'ni ichki ruhiy olami va moddiylikning muqobili deb berilgan.

1981-yilda Moskva “Rus tili” nashriyoti nashr etilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati” da “ma'naviyat” atamasi uchramaydi. Ammo uning o'zagi bo'lgan “ma'ni”, “ma'no” so'zlari hamda “ma'naviy” va “ma'nan” sifatlanishi yoritilgan. “Ma'naviy” so'zining birinchi mazmuni kishining ichki, ruhiy hayotiga oid deb, ikkinchi mazmuni esa axloqiy (kishining ma'naviy qiyofasi) deb ifodalangan. Lug'atda “ma'ni” so'zi ikki mazmunda berilgan: so'zning birinchi mazmuni **ma'no**, ya'ni **so'zning ma'nosini** ifodalagan (Misol, “*Gapga ham bir ma'ni bo'lishi kerak, - dedi Gulshan*” Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”). Ikkinchi mazmuni **aql, es-hush** deb ifodalangan. “Ma'no” tushunchasi so'z bilan ifodalangan tushuncha yoki ish-harakat, gap, maktub, asar va sh.k zamiridagi mazmun tarzida talqin qilingan (*So'zning to'g'ri ma'nosi, so'zning ko'chma ma'nosi*)⁴¹.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati” da “ma'naviyat” atama sifatida kiritilgan va quyidagicha izoh berilgan: “Ma'naviyat” – (arabcha – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar) Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k tasavvurlari va tushunchalari majmui”. Lug'atda “ma'ni” va “ma'no” so'zlari alohida-alohida berilgan bo'lsada, mazmun jihatdan deyarli farq yo'q. So'zning birinchi mazmuni **ma'no** (*So'zning ma'nosi*). So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha. Ikkinchisi **mazmun** (“*Rustam esi kirib qolgan, kitob o'qib, har gapning ma'nosini tushunadigan bo'lgan*”. “Murodxon”) ni ifoda etgan. Uchinchi mazmuni **aql-hush, tayin** (*Ma'nisi yo'q odam. – Sizlarda ma'ni bormi, bema'nilar. M.Qoriyev, Oydin kechalar*); **ma'ni kirmoq** aql kirmoq, es-hushli bo'lmoq. To'rtinchi mazmuni biror narsaning sababi, mohiyati, nima ekanligi; mohiyatni anglatishi ifoda etilgan⁴².

⁴¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva, 1981. 1-jild, 454-455-b.

⁴² O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 2-jild, 565-566-b.

“Farhangi zaboni tojiki” lug’atida esa “ma’ni”/”ma’no” tarzida birga berilgani va beshta mazmunda yoritilganini ko’rish mumkin: 1. “mazmuni kalom” – so’zning mazmuni; 2. Fikr, g’oya; 3. Mohiyat, mazmun (falsafiy tushuncha); 4. Tasavvufda – ruh, kishining ruhiy holati; 5. Sabab, bois. So’zning to’rtinchi mazmuni, ya’ni tasavvufdagi kishining ichki ruhiy olamini ifoda etib kelgan mazmuni boshqa lug’atlarda uchramaydi⁴³.

“Mustaqillik” izohli ilmiy-ommabop lug’atida “Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, dadiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar”⁴⁴ deb ta’rif berilgan. Ta’rif hajm jihatidan qisqa bo’lsada, mohiyatan ancha keng. Ma’naviyat faqatgina kishilarning barcha tasavvurlari va tushunchalari bilan chegaralanib qolmay, balki butun jamiyat va millatning tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo’ljallari, ideallari hamdir. “Falsafa qisqacha izohli lug’ati”da⁴⁵ ham yuqoridagi ta’rifning aynan o’zini uchramiz.

“O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” da ”ma’naviyat” ga yanada kengroq ta’rif berilgan: “ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o’z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so’zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo’y-basti, ko’rinishi, kiyinishi va hatti- harakati va b. kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, his-tuyg’ularini o’z ichiga oladi...”⁴⁶.

2009-yilda Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarlari asosida nashr etilgan “Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’atida “ma’naviyat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ma’naviyat

⁴³ Farhangi zaboni tojiki. 1-jild, Moskva, 1969. 665-b.

⁴⁴ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug’at. T.: ”Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. 114-b.

⁴⁵ Falsafa qisqacha izohli lug’at. T.: ”Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2004. 199-b.

⁴⁶ O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-son, T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 540-bet.

(arab. Ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa"⁴⁷.

O'tgan davr mobaynida lug'atlardan tashqari olimlar, tadqiqotchilar hamda ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislarining izlanishlari natijasida ma'naviyatga bag'ishlangan ko'plab kitoblar, monografiyalar, risolalar va maqolalar chop etildi. Ularning har biri ma'naviyat tushunchasi va mazmun-mohiyatini yoritishda o'zlarining ilmiy salohiyati, dunyoqarashi hamda faoliyat yuritayotgan va tadqiqot olib borayotgan sohasidan kelib chiqib yondashdi. Birinchi navbatda davlat rahbarining o'zi ma'naviyatning mazmun-mohiyatini yoritib berdi. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida va barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviyatning ahamiyatini hisobga olib Islom Karimov o'zining ko'plab asarlari va ma'ruzalarida ma'naviyat to'g'risida fikr yuritdi. Prezidentimiz ma'naviyatni O'zbekistonning milliy tiklanishi va rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etishini, ongimizni, shuurimizni tazyiqdan halos etmasak o'z kuchimizga, buyuk kelajagimizga ishonch, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun qat'iy irodaga ega bo'lmasak, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, boqimandalik kabi illatlarni yo'qotmasak, tashabbus ko'rsatmasak, buyuk marralarga intilmasak biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olmasligimizni ta'kidladi. Shu sababdan ma'naviy yuksalish milliy ongimiz, shuurimiz , mentalitetimizni o'zgartirishimiz, eng ilg'or g'oyalarimizni o'zlashtirishimiz uchun ma'naviyat rivojlanishi kerak. Shuningdek, o'zligimizni anglash uchun ham tarixiy xotiramizni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni o'zlashtirishimiz kerak. Bu ham ma'naviyatni rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababdan Prezidentimiz iqtisodiyot qatori ma'naviyatga ustuvorlik berilishini mustaqil taraqqiyotimizning asosiga qo'ydi. Ma'naviyat haqidagi barcha fikrlarni mujassamlab Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli alohida asar ham yozdi. Prezidentimiz ma'naviyatga

⁴⁷ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 333-b.

ichki botiniy bir kuch sifatida qaradi: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”⁴⁸ deya ma’naviyatga ta’rif berdi.

Islom Karimovning ma’naviyat, uning jamiyat taraqqiyotida va milliy tiklanishimizda egallagan o’rni, ma’naviyatning xususiyatlari va o’ziga xos namoyon bo’lish shakllari, mazmun-mohiyati haqida bildirilgan fikrlari mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilmiy jamoatchilik va ziyoliylarimiz tomonidan qo’llab quvatlandi. Ma’naviyatning tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, ijtimoiy vazifalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tog’risida ko’plab tadqiqotlar, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar paydo bo’ldi.

Ammo, “ma’naviyat” tushunchasining kelib chiqishi va shakllanish tarixi hali to’liq tarzda o’rganilgani yo’q. Ma’naviyat masalasini o’rganishga, tahlil qilishga, uning inson va jamiyat hayotidagi o’rnini hamda boshqa sohalar bilan aloqalarini yoritishga qaratilgan turli mualliflar tomonidan yozilgan ilmiy risola va maqolalar, o’quv qo’llanmalari va darsliklarda ba’zi bir chalkash, o’zaro bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar ko’zga tashlanadi. Turli tadqiqotchilarning yondashuvlari ba’zan biri ikkinchisini inkor etib, o’zaro bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar mavjudligi o’qitishda chalkashliklar yuzaga chiqishiga sabab bo’lmoqda.

A.Erkaev o’z qarashlarini ifodalab, “ma’naviyat” tushunchasi kelib chiqishiga ko’ra, ikki o’zakka borib taqalishini aytadi. Uning birinchi farazi bo’yicha bu tushuncha arabcha “ma’ni” o’zagidan hosil bo’lgan. Bunda ilk islom ilohiyotchilari va faylasuflaridan bo’lgan mu’taziliylar – Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd Qur’oni sharhlash ilmiga (“ilm at-tafsir”ga) asos solishib mohiyat haqidagi fanni “ma’ni” deb ataganlar. Narsa va hodisalarning, jarayonlarning, tabiat, jamiyat va Xudoning mohiyati haqidagi ta’limotni ular

⁴⁸ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. 19-b.

“ma’na” deb ataganlar, shu tariqa ma’naviyat tushunchasini o’zagi – “ma’na” ga atama sifatida asos solganlar⁴⁹.

Ikkinchi faraz: ma’naviyat ham, uning o’zagi “ma’na” ham qadimgi hind falsafasining asosiy tushunchalaridan biri “ma’nas” tushunchasiga borib taqaladi. “Ma’nas” sanskrit tilida aql degan ma’noni anglatgan. U aql, fahm-farosat, hissiyot, tuyg’ular, sezgilar va irodaning manbai bo’lgan⁵⁰.

Tarixdan ma’lumki Yaqin Sharq, Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston o’rtasida doimiy ravishda iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yaxshi o’rnatilgan bo’lgan. Ajdodlarimiz Islom diniy- falsafiy ta’limotini yaratishda hind falsafasiga ham tayanganlar. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, ma’nas aynan hindlar ishlatgan shaklda Markaziy Osiyo va Eronda ham qo’llangan va bu tushuncha so’fiylik ta’limotida ifodalangan. “Farhangi zaboni tojiki” lug’atida ma’nas “mahalli unsu ulfat” – do’stlar va ulfatlar joyi deb sharhlangan va misol tariqasida Rumiyning quyidagi bayti keltirilgan:

“Qasrho xud mar – shohonro ma’nas ast,

Murdaro xonu makon go’re bast ast ”.

Mazmuni: agar shohlar uchun qasrlar do’st-yor joyi bo’lsa, o’liklar uchun esa xonu makon go’rdir.

Bu yerda ”ma’nas” – do’st-yor, ya’ni Xudo yashaydigan joydir. Ma’nas qalb ma’nosida ishlatilib, har bir insonning qalbida Xudo mavjudligi ifodalanmoqda. Shohlar deganda Haq yo’lida yashovchi Komil insonlar nazarda tutilmoqda. O’liklar deganda o’z nafsu hirsining qurboni, hech ishga rag’batsiz, loqayd, befarq kishilar nazarda tutilib, qalblari qabrga qiyoslanmoqda. Ushbu baytda qasr ham, qabr ham qalbning ma’juziy ma’nosidir⁵¹.

Darvoqe, A. Erkaev o’zining ”Ma’naviyat – millat nishoni” kitobida ”ma’nas” sanskrit tilida aql degan ma’noni anglatishini aytgan⁵². Ammo

⁴⁹ Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 1999. 12-b.

⁵⁰ O’sha manba, 13-b.

⁵¹ Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 1999.16-17-b.

⁵² O’sha manbaa, 16-b.

”Farhangi zaboni tojiki” lug’atida ”ma’nas” arabcha so’z deb berilgan. Boshqa lug’atlarda, xususan rus tilida chiqqan “Философский энциклопедический словарь” lug’atida ma’nas sanskrit tiliga oidligi qayd etilgan⁵³.

Demak, bizningcha ”ma’nas” atamasi kelib chiqishi sanskrit tiliga borib taqalsada, butun musulmon olamida arab tili orqali keng tarqalgan degan xulosaga kelish mumkin. Balki, ”ma’nas” fors tiliga sanskrit tilidan bevosita o’tgandir. Chunki Eron Hindiston bilan chegaradoshligidan tashqari, fors tili va sanskrit tili bir oilaga mansub tillardir. Yana shuni nazarda tutish kerakki ilk islom ilohiyotchilari ya’ni mu’taziliylar hind diniy – falsafiy qarashlarini ham o’rganganlar va shu tariqa ”ma’nas” atamasi arab tiliga kirib kelgan va o’zlashtirilgan bo’lishi mumkin.

Professor M. Imomnazarov ma’naviyatni ilohiy hodisa sifatida talqin qiladi: “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo’lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini “Haqiqat asrorining ganjinasi” deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga aqli bashar qudrati yetmaydi”⁵⁴. Bu fikrdan ma’naviyat insonga Olloh tomonidan berilgan bir xususiyat degan xulosaga kelish mumkin. Muallifning qarashlari ba’zi bir tanqidlarga sabab bo’lganligi bois, u yana boshqa bir kitobi – “Milliy ma’naviyatimiz asoslari” o’quv qo’llanmasida o’zining majoziy ta’rifini ilmiy tilda sharhlab, “Ma’naviyat – inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg’unlik”⁵⁵ deya masalaga biroz aniqlik kiritadi. Muallif dastlab bergan ta’rifini tasavvufiy talqinlarga suyangan so’fiyona, ramziy ta’rif ekanligini ta’kidlaydi va ma’naviyatni inson aqliga Olloh tomonidan berilgan bir fayz ekanligini aytib – uning mohiyatini yana diniylikka borib bog’laydi⁵⁶. Ammo, mazkur mulohazani “ma’naviyat” tushunchasining mohiyatini to’laqonli ochib beradi deya

⁵³ Философский энциклопедический словарь. М.: 1983-йil, 337-bet.

⁵⁴ Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent, 1996. 6-b.

⁵⁵ Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O’quv qo’llanma. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 33-b.

⁵⁶ Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O’quv qo’llanma. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 30-31-b.

olmaymiz. Sababi – din ma’naviyatning asosi emas balki, muhim ahamiyatga ega bo’lgan tarkibiy qismidir. Ilm-fanni diniy-mistik qarashlar yordamida yoritish mumkin emas. Ilm-fan faqatgina aniq faktlarga va mantiqiy mulohazalarga tayanadi. Shunda u obyektivlik va haqqoniylik kasb etadi. Ma’naviyat rivojlanib borayotgan mustaqil ijtimoiy hodisadir. Shu o’rinda ta’kidlab o’tmoqchimiz, M. Imomnazarovning ushbu o’quv qo’llanmasi (Milliy ma’naviyatimiz asoslari. 2006-yil) asosan ijtimoiy-gumanitar yo’nalishdagi oliy o’quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalariga darslik sifatida foydalanish uchun mo’ljallangan. Darslikda aniq va tushunarli bo’lgan ilmiy atamalar va iboralar yordamida mavzularning mazmuni yoritilishi lozim. Darslikda muallif “ma’naviyat” ni diniy, badiiy hamda majoziy mazmunda ta’riflaydi va mulohaza yuritadi.

Q. Quronboyev va V. Qo’chqorovlar inson ma’naviyatini o’zini shaxs sifatida anglaganidan boshlab, umrining oxirigacha shakllantirishi va rivojlantirib borishi, bu borada insonning imkoniytalari va ehtiyojlari cheksiz ekanligini aytadi⁵⁷. Mualliflar ma’naviyatning rivojlanuvchi hodisa ekanini ko’rsatadi. Lekin ular ma’naviyatning tuzilmasini, shaklini, mazmunini yetarli darajada ochib bermaydi. Bundan tashqari ta’rifda ma’naviyat faqat insonga xos bo’lib, jamiyatga va uning tuzilmalariga, darajalariga tegishli bo’lmay qolyapti.

Ulardan farqli M. Hamdamova ma’naviyatga “jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha” sifatida qaraydi. “Ma’naviyat keng ma’noga ega bo’lib, ma’rifat, madaniyat kabi tushunchalarni o’z ichiga oladi” – deb tarif beradi⁵⁸. Mazkur ta’rifda yuqoridagi ta’rifga nisbatan ma’naviyatni faqat insonga xosligi bilan chegaralanmay balki, jamiyat, millatga ham mansub ekanligi aytib, masalaga kengroq yondashilgan. Ammo, ta’rif bir yoqlama bo’lib qolgan. Birinchidan, Hamdamova ta’rifda ma’naviyat faqat ichki hayot bilan chegaralanib qolgan. Insonning ma’naviyati faqat uning orzu-havaslari bilan

⁵⁷ Quronboyev Q, Qo’chqorov V. Milliy g’oya va ma’naviy hayot. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2014. 8-b.

⁵⁸ Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. 99-b.

emas, shuningdek xulq-atvorida, hatti-harakatida, ijodida va odamlar bilan o'zaro munosabatida ham namoyon bo'ladi.

Ikinchidan, qobiliyat bu tabiat ato etgan imkoniyat, ma'naviyat emas. Chunki qobiliyatli, bilimli odamlar orasida faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin, poraxo'r, ochko'z kishilar ham uchraydi va aksincha qobiliyati o'rtacha bo'lgan kishilar orasida hushfe'l, hayrixoh, mehr-oqibatli, ko'ngilchan, saxovatli, ya'ni ma'naviyati yuksak odamlar kam emas.

A.Erkaev ma'naviyatni ijtimoiy hodisa deb hisoblaydi va unga kengroq ta'rif beradi: "Ma'naviyat faqat insonga xos. Lekin u ilohiy yoki g'ayri tabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa bo'lib, inson faoliyati bilan bog'liq. Tabiatda ma'naviyat yo'q. inson ma'naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi"⁵⁹. Muallif ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati ekanligini uqtirib, uni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmui deydi⁶⁰.

Sadulla Otamuratov va Sarvar Otamuratovlar esa bir qancha tadqiqotchilarning ma'naviyatga bergan ta'rifini quyidagicha ilmiy tahlil qilgan: "Matbuotda va ilmiy adabiyotlarda ma'naviyat tushunchasiga berilayotgan ta'riflarda fikrimizcha, bitta muhim qirra ochilmay qolganday. Xususan, ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmui... Jamiyatning, millatning yoki ayrim kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujasamlashtiruvchi tushuncha (A. Ibrohimov, H. Sultonov, N. Jo'rayev), insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli (A. Jalolov), insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir (A. Erkaev), deb hisoblaydigan bo'lsak, u holda

⁵⁹ Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 1999. 23-b.

⁶⁰ Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 1999. 23-b.

faoliyatning “mahsuli” yoki ularni “mujassamlashtiruvchi” tushuncha bo’lib qolmoqda”⁶¹.

Sadulla Otamuratov va Sarvar Otamuratovlar ham “ma’naviyat” tushunchasiga o’z munosabatini bildirgan: “Ma’naviyat insonning ichki ruhiyati, unga berilgan “ne’mat” yohud mavjud ijobiy ko’rsatkichlar bo’libgina qolmasdan, shuning bilan birga uni izchillik bilan rivojlantirish hamda undan inson, millat va jamiyatni taraqqiy qildirishda foydalanish jarayonlari mavjud bo’ladi. U inson, millat va jamiyatni taraqqiy qildiribgina qolmasdan, o’zi ham rivojlanib boradi”⁶². Bu ta’rifdada “ma’naviyat” tushunchasi kengroq ochib berilgan.

Bu keltirilgan ta’riflarni barchasini bekorga chiqarmoqchi yoki bo’lmasa butkul noto’g’ri deb baholamoqchi emasmiz. Albatta, yuqorida keltirilgan ta’riflarda ma’naviyatning u yoki bu qirralari o’z ifodasini topgan. Tadqiqotchilar bu tushunchaga o’zlarining qarashlari nuqtai nazardan yondashganlar. Mukammal ta’rif esa turli qarashlarni umumlashtirish va ilmiy asoslash natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham ularni ilmiy tahlil qilish va munozaralar bildirish muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviyat muammosi juda ham murakkab va serqirrali bo’lgani sababli unga berilgan ta’riflar ham rang-barangdir. Prezidentimiz Islom Karimov ma’naviyat haqida uning barcha qirralarini o’zida mujassam ettirib quyidagicha yozadi: “Ma’naviyat” tushunchasi jamiyat hayotidagi g’oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o’zida to’la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi “ma’naviyat” tushunchasi orqali ifoda etish mumkin”⁶³.

⁶¹ Otamuratov Sadulla, Otamuratov Sarvar. O’zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, “O’AJBNT” Markazi, 2003. 177-b.

⁶² O’sha manba, 178-b.

⁶³ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. 20-b.

Shu sababdan A.Erkaev ma'naviyatning turli jihatlaridan kelib chiqib, unga bir necha ta'riflar beradi va xulosada ularni umumlashtirishga harakat qilib, quyidagilarni qayd etadi: "Ma'naviyat – bu ijtimoiy ongning e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljallari, ideallaridir, ularning madaniy merosda, urf-odatlarda aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishish uchun yordam beradigan milliy irodasi hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir"⁶⁴.

Yuqoridagilardan ayon bo'lmoqdaki "ma'naviyat" ancha murakkab va ziddiyatli tushunchadir. Oliy o'quv yurtlarida ushbu soha bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislar, ayniqsa magistrlar mavjud qarashlarni, ularning o'zaro farqi va o'xshash jihatlarini yetrali darajada bilishlari kerak. Shunda ular ma'naviyatning mazmun mohiyatini har tomonlama va teranroq tushunadi. Oliy o'quv yurtlarining bo'lajak dasturlari va darsliklarida ushbu holat nazardan chetda qolmasligi maqsadga muvofiq.

I bob bo'yicha xulosa

1. Inson va jamiyat hayotining barcha tarixiy davrlarida yuksalishga, rivojlanishga intilish bo'ldi. Rivojlanish faqat moddiy turmushning yaxshilanishi bilangina emas, shuningdek odamlarning o'zaro munosabatlarini yaxshilanishi, og'ir damlarda bir-birini qo'llab-quvatlashi, xursandchiliklarni baxam ko'rishi, o'zaro munosabatlarini turli xil me'yorlar qoidalar yordamida tartibga solishiga ham bog'liq ekani ayon bo'lgan. Shu sababdan mumtoz adabiyotda buyuk mutafakkirlarimiz insonning ma'naviy dunyosini qanday yuksaltirish, uning tabiatini, xulq-atvorini yuksak marralarni ko'zlashini qanday qilib takomillashtirish ustida bosh qotirganlar.

2. Mumtoz adabiyotda insonning moddiy-iqtisodiy hayoti, farovonligi ma'murligiga katta e'tibor qaratilsada, ustuvorlik uning ma'naviy hayotiga

⁶⁴ Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2009. 50-51-b.

berilgan. Ollohni tanish, o'zligini bilish, nafsini tiyish kamtar, saxovatli va axloqli bo'lish orqali komillikka intilish mumtoz adabiyotda qo'llaniladigan "ma'naviyat" tushunchasining mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

3. Mumtoz adabiyotda ma'naviyat masalalari va umuman "ma'naviy" tushunchasining keng talqinini biz Jaloliddin Rumiya uchratamiz. Abu Nasr Forobiy "ma'naviylik" atamasi o'rniga "fozillik" atamasini qo'llagan. Boshqalardan farqli Forobiy "fozillik"ni diniy mazmunda emas, balki dunyoviy, mazmunda qo'llaydi. Rumiya ham, Navoiyda ham va boshqa mutafakkirlarda "ma'naviy" tushunchasi ko'proq diniy va tasavvufiy mazmunlarda qo'llanilgan. Navoiy "ma'naviyat" so'zining ma'nodoshi sifatida "ruhoniya" tushunchasini ham qo'llaydi.

4. Jaloliddin Rumiya "ma'naviyat" so'zini nafaqat "ma'no" mazmunida shuningdek "ma'nas" mazmunida ham qo'llagan. Ushbu holatga A.Erkaev diqqatni jalb qiladi va "ma'naviyat" tushunchasi shakllanishiga arabcha "ma'ni" tushunchasi bilan birga sanskrit tilidagi "ma'nas" tushunchasi ham hissa qo'shgan bo'lishi mumkin degan farazni olg'a suradi.

5. "Ma'naviyat" tushunchasiga berilgan turli ta'riflarni tahlil qilib va umumlashtirib, Sa'dulla va Sarvar Otamurodovlar ma'naviyat faqat qo'lga kiritilgan yutuqlar va qadriyatlar tizimi emas, balki ularning yaratish jarayoni ham ekanligiga e'tibor qaratadi.

6. Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyatni jamiyat va insonni turli tahdidlardan himoya qiluvchi, poklantiruvchi, yuksak marralarga yo'naltiruvchi ruhiy va intellektual kuch sifatida talqin qiladi. Shu bois o'z asarini "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" deb atagan.

II-BOB. TA'LIM TIZIMINING TURLI BOSQICHLARIDA O'QITILADIGAN DARSLIKlarda "MA'NAVIYAT" TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHİYATINING YORITILISHI

2.1. O'rta va umumiy ta'lim tizimida o'qitilayotgan "Ma'naviyat asoslari" fani doirasidagi o'quv darsliklari va fan dasturlarining yutuq va kamchiliklari.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat moddiy-iqtisodiy yuksalishga, shuningdek jamiyat a'zolarining taraqqiyotini to'g'ri tushunishlariga, ilg'or g'oyalarni, marralarni ko'zlashiga bog'liq. Ijtimoiy-ma'naviy qashshoq bo'lgan davlat taraqqiyot cho'qqilariga ko'tarila olmaydi. Shu sababdan Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda Davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir... Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir"⁶⁵. Shu sababdan ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviyat fanlari o'qitilmoqda.

"Ma'naviyat asoslari" fanini alohida fan sifatida o'rganish va o'quv dasturlariga kiritish ilk bor O'zbekistonda amalga kiritilganligi Islom Karimov tashabbusi bilan bo'ldi. 2000-yil 6-aprel kuni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda Prezidentimiz olg'a surgan fikrlar va belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xalqning, ayniqsa yosh avlodning ilg'or ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarga binoan yangi yaratilayotgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari "Ma'naviyat asoslari" va ma'naviyatga oid predmetlar kiritildi.

Jamiyat bilan birga ta'lim-tarbiya tizimi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Bu jarayonda inson tafakkuri chuqurlashib, bilimi boyiydi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy taraqqiyot yangi-yangi fanlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi, ilm-fan takomillashib, yangidan-yangi nazariyalar, kashfiyotlar yaratiladi. Ular asta-sekin ta'lim tizimiga kiritiladi.

⁶⁵ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 80-81 b.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida alohida jamiyat ma'naviy hayotini o'rganuvchi yangi ilm – “Ma'naviyat asoslari” fani shakllana boshladi. Chunki ma'naviyat tog'risida aniq va nisbatan mukammal tasavvurlargina ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishda ma'naviy omillardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Davlatimiz taraqqiyoti va kelajagi, barkamol avlodni tarbiyalash, turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan yoshlarni himoya qilish, jahon hamjamiyatiga tenghuquqli integratsiya bo'lish ma'naviy yuksalishimizga, ayniqsa kelajak avlod dunyoqarashiga, uning ijtimoiy mo'ljallariga, qadriyatlar tizimiga bog'liq. Biz yoshlarimiz ma'naviy dunyosini, ong-shuurini, tafakkurini insoniylikka yo'g'riltirishimiz, vijdonini uyg'otishimiz lozim. Yosh avlodning ma'naviy qarashlarini shakllantirish uchun bolaga milliy o'zlikni anglatish, unda sog'lom milliy g'ururni shakllantirish kerak. Yosh avlod qalbida va ongida yuksak ma'naviy me'zonlarni, talablarni qaror toptirish, jamiyat ma'naviyatini yanada rivojlantirish zarur. Bu esa ma'naviyatni alohida har tomonlama chuqur o'rganishni, uning yuksalish qonuniyatini yaxshi bilib olib, amaliyotda, tarbiyaviy ishlarda qo'llashni taqozo etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ma'naviyat haqidagi tushunchalar an'anaviy o'rganilgan fanlar – til-adabiyot, tarix, falsafa, etika, estetika, dinshunoslik kabi ijtimoiy fanlar doirasida o'qitilar edi, 2001-2002- o'quv yilidan boshlab uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida alohida “Ma'naviyat asoslari” fani o'qitilishi yo'lga qo'yildi va ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar yaratildi. Birinchi navbatda o'sha yillarda hali saqlanib qolingan o'n bir yillik umumta'lim maktablarida 5-sinfdan 11-sinfgacha, to'qqiz yillik ta'lim tizimi joriy etilganidan so'ng esa 5-sinfdan 9-sinfgacha o'qitilishi zarur bo'lgan darsliklar yaratildi.

Bunga ma'naviyatning dastlabki o'rganilish predmetlari sifatida 5- va 6-sinflar uchun bolalarning yoshi, psixologik tayyorgarligi hisobga olinib “Vatan tuyg'usi”, 7,8 va 9-sinflarga mo'ljallangan “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” darsliklari nashr etildi va o'quv rejasiga kiritildi.

2011-2012-o'quv yili uchun umumta'lim maktablarining "Vatan tuyg'usi" hamda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani o'quv dasturlari "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ilgari surilgan g'oya, qarash va xulosalar asosida tubdan qayta ishlandi. Shu sinflar darsliklari ham mazkur takomillashtirilgan dasturga muvofiq yangidan yaratildi.

Akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari uchun ushbu yangi fan o'qitilishi uchun "Ma'naviyat asoslari" va "Milliy istiqlol g'oyasi" fanlari kiritilib, darsliklar, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqildi. Oliy o'quv yurtlarining magistraturagacha bo'lgan bosqichlarida barcha – mutaxassis va nomutaxassis yo'nalishlarida bu fan o'qitilmoqda.

Yangi o'quv predmeti dasturi nisbatan mukammal shaklda vujudga kelishi uchun vaqt kerak. Hozirgi foydalanilayotgan dasturlarga ijtimoiy jarayon, yangi jamiyat qurish amaliyoti, shak-shubhasiz, tegishli o'zgarishlar kiritishni, uni mudom boyitishni, yangi tadqiqotlar dalillari va xulosalarini hisobga olishni taqazo qiladi. Shu bilan birgalikda ma'naviyatning metodologik va boshqa nazariy masalalarini har tomonlama chuqur o'rganish lozim. Chunki darsliklarda muayyan fan erishgan yutuq va kamchiliklar muqarrar tarzda o'z aksini topadi. Ushbu holat ta'lim tizimida foydalanilayotgan barcha ma'naviyatni o'rganuvchi darsliklarga ham taalluqli. Ularni yanada takomillashtirish uchun eng avvalo "ma'naviyat" tushunchasining mohiyati, uning tuzilmasi va ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat ekanini yanada teranroq ochib berish zarur. Ma'naviyatning yo'nalishlari va namoyon bo'lish shakllari, rivojlanish qonuniyatlari haligacha to'liq anglab olingani yo'q.

Ayni damda shuni ta'kidlash joiz: milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi ma'naviyatning tarkibiy qismiga kiradi. Uni oziqlantiruvchi, harakatlantiruvchi aqliy va hissiy asos vazifasini o'taydi⁶⁶. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi o'zining ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib inson ma'naviyatini anglashga va uni shakllantirishga asos bo'ladi. Bular uzviy aloqadorlikda bo'lib, inson ma'naviy dunyosining boyishida eng muhim vazifani bajarsada, shu o'rinda bu

⁶⁶ Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 6-b.

tushunchalar o'z predmetidan kelib chiqib alohida-alohida o'rganiladigan, keng qamrovli sohalar ekanligini ham ta'kidlash lozim. Ularga mansub tushunchalar, tamoyillar, mezonlar, me'yorlarning har bir mazmuni darsliklarda sodda va o'quvchiga mos tilda ochib berilishi kerak. O'quvchi bu atamalarga, so'zlarga ilk bor duch kelmoqda. Mutaxassislariga mo'ljallangan maqolalarda har bir tushunchaga izoh shart emas. Ammo maktab darsligida shart.

Umumta'lim maktablarining 7-sinflari uchun mo'ljallangan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligi M.Qarshiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova va R.Qo'chqorovlar tomonidan tuzilgan (4-nashri). Darslikning birinchi – "Ma'naviyat – kuch qudrat manbai" bobidagi "Inson – ezgulik ijodkori" nomli birinchi mavzusida quyidagi holatni uchratish mumkin. "Milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillari" degan iboraning mazmuni haqida o'ylab ko'raylik"⁶⁷ deyilgan, va "**Bularni bilib oling!**" deya "tushuncha", "tamoyil" hamda "prinsip" so'zlariga ta'rif berilgan⁶⁸. Bu juda yaxshi, biroq mavzuda milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari nima ekanligi aniq, konkret sanab berilmagan. Bundan tashqari darslikda kirish qismi yo'q. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan – "Inson – ezgulik ijodkori" mavzu darslikning kirish qismi sifatida berilgan, ammo unda fanning maqsadi, vazifasi va predmeti yetarli darajada ochib berilmagan.

Mavzuda "Milliy g'oya shu davlat hududida yashayotgan insonlarning barchasiga birdek tegishli va tushunarli bo'lgani uchun u "milliy" deyiladi" deb berilgan⁶⁹. Bu yerda "milliy g'oya" ning mohiyati ham, "milliy" so'zining o'zi ham to'laqonli ochib berilmagan. Bunda avvalombor "milliy g'oya" dagi "g'oya" ga o'quvchi tushunadigan soddagina tilda ta'rif berib va "milliy" so'zining mohiyati ham yoritilib so'ngra "milliy g'oya" deganda nimani tushunish kerak ekanligi aytilishi lozim edi. O'quvchi fanga kirishdan oldin avvalo uning asosiy

⁶⁷ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: "Ma'naviyat", 2011. 5-b.

⁶⁸ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: "Ma'naviyat", 2011. 6-b.

⁶⁹ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: "Ma'naviyat", 2011. 5-b.

maqsadini anglab yetolmasa fanning mazmun-mohiyatini tushunishga qiynaladi. Chunki 5 va 6-sinflarda “Vatan tuyg’usi” darsligini o’qib, o’rgangan o’quvchi uchun mazkur fan yangi va o’z navbatida tushunarsizdek tuyuladi.

Darhaqiqat, darslikning “Fikr va g’oya” mavzusida⁷⁰ “*fikr*”, “*shaxsiy va ijtimoiy fikr*”, “*g’oya*” va “*milliy g’oya*” tushunchalari mohiyati yoritib berilgan: “Odamlarning orzu-niyatlariga qarab, fikrlar ikki xil bo’ladi. Birinchisi – faqat bir odamning tasavvurini ifoda etadigan shaxsiy fikr. Ikkinchisi – ko’pchilikning tasavvurini ifoda etadigan ijtimoiy fikr. Fikr odamlarning e’tiborini tortadigan, ularni birlashtiradigan, harakatga undaydigan bo’lsa, g’oya deb ataladi... G’oya avvalo ko’pchilikning orzu-intilishlari va manfaatlarini ifoda etishi, odamlarni birlashtirishi va biron-bir maqsadni amalga oshirish uchun safarbar etishi lozim... Agar fikr mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, u vaqti kelib, milliy g’oyaga aylanishi mumkin”⁷¹

Nazarimizda, yuqoridagi tushunchalar mohiyatini yoritishda oddiy qilib, matn ichida aytib ketilmasdan, balki alohida ta’rif ko’rinishida, so’ngra har bir berilgan ta’rifning mohiyati yoritib berilganda maqsadga muvofiq bo’lar edi. Biz “*g’oya*” va “*milliy g’oya*” tushunchalariga ta’rifni quyidagi mazmunda va ko’rinishda berishni tavsiya qilamiz:

G’oya – inson ongi va tafakkurida yaralib, inson va jamiyat manfaati uchun xizmat qila oladigan va insonlarni ezgulik sari birlashtiradigan ijtimoiy fikrdir.

Yoki yanada qisqaroq, tushunarli va o’quvchi xotirasida tez saqlanib qolishi mumkin bo’lgan ta’rif:

G’oya – bu inson va jamiyat o’z oldiga qo’ygan maqsad va muddaolarni

⁷⁰ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 14-b.

⁷¹ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 14-15-b.

ifodalovchi tushuncha.

“**Milliy**” so’ziga ikki xil yondashiladi – tor va keng ma’noda. Tor ma’noda milliy deb ma’lum bir millat, xalq va elatga tegishli bo’lgan qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar, o’sha xalqning tili, dini, yashash sharoiti va kelib chiqishi kabi o’ziga xos xususiyatlar tushuniladi. Keng ma’noda ma’lum bir davlatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar, turli xil millatlar, elatlar uchun birdek ahamiyatli bo’lgan qadriyatlar tushuniladi.

Milliy g’oya – shu mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha xalq, millat va elatlarning orzu intilishlari va manfaatlarini ifoda etgan, insonlarni birlashtirib, biron-bir ezgu maqsadlarni amalga oshirish uchun safarbar eta oladigan g’oyalardir.

Bizning milliy g’oyamiz bosh g’oyasi “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish”dir, milliy g’oyamizning asosini yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi degan uchta buyuk maqsad hamda komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik (tolerantlik) kabi g’oyalar muhim o’rin tutadi.

“Milliy istiqlol g’oyasi va Ma’naviyat asoslari ” darsligida “Ma’naviyat asoslari” ga berilgan ta’rifga ham e’tibor qarataylik: “Ma’naviyat asoslari” deganda esa inson ma’naviyatining shakllanishiga asos bo’ladigan eng muhim omillar – Vatanga muhabbat, xalqimizga xos go’zal fazilatlar, an’ana va qadriyatlar, uning ruhi oziqlanadigan umumbashariy g’oya va qadriyatlarni tushunamiz” deyilgan⁷². Ushbu ta’rif g’alizroqdek. Sababi ta’rif “Ma’naviyat asoslari deganda...” shaklida boshlangan. Bu ko’rinishda emas, balki “Ma’naviyat asoslari fani...” deb boshlanishi hamda dastlab “ma’naviyat”

⁷² Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 6-b.

tushunchasining o'ziga to'xtalib, so'ng Ma'naviyat asoslari fani (sohasi) o'tilishidan maqsad va vazifasi yoritilishi lozim edi. Masalan:

“Ma'naviyat asoslari” fani inson ma'naviyatining shakllanishiga asos bo'ladigan eng muhim omillar – Vatanga muhabbat, xalqimizga xos go'zal fazilatlar, an'ana va qadriyatlar, uning ruhi oziqlanadigan umumbashariy g'oya va qadriyatlarni o'rgatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7,8 va 9-sinflar ushun o'qitilayotgan “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” darsliklarida “Milliy istiqlol g'oyasi” va “ma'naviyat” tushunchalarining mazmun mohiyati Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asari hamda ko'pgina ma'naviyatshunos olimlarimiz, izlanuvchilarimiz asarlari va ilmiy-amaliy ishlari asosida keng ochib berilgan. Biroq bu ikki tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar ozroq mavhumligicha qolgan. Bundan tashqari predmetlararo bog'lanish va ulardagi mavzular mohiyatan bir-birini davom ettirishida ham kamchiliklar kuzatiladi. Darsliklardagi mavzular o'rtasida davomiylik va uzviyligini tahlil qilsak, quyidagi holatni ko'ramiz. 7-sinf darsligining mazkur bobida “Ma'naviyat va uning ta'rifi” mavzusidan keyin “Fikr va g'oya” (3-mavzu) mavzusi berilgan. Ammo mavzular mohiyatan bir-biriga bog'lanib ketmagan. Inson ma'naviyatini shakllantirishda fikr va g'oyaning o'rni va o'z navbatida inson ongi va tafakkurida aks etuvchi fikr va g'oyalar yaralishida ma'naviyatning ta'siri e'tirof etilmagan. Shu bobning “Ma'naviyatni anglash – insonni anglash” nomli amaliy mashg'ulotining so'z boshida “Shuni esda tutingki, ma'naviyat ham, g'oya ham insonni anglashda, tushunishda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun biz ma'naviyatni, uning tarkibiy qismi bo'lgan g'oyani, bu ikki noyob hodisaning xususiyati va qonuniyatlarini qanchalik chuqur bilib olsak, insonlarni ham shuncha yaxshi tushunadigan bo'lamiz”⁷³ deyilgan. Amaliy mashg'ulotlarni o'quvchi o'tilgan

⁷³ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma'naviyat”, 2011. 31-b.

mavzularni o'qish, o'rganish orqali mustaqil fikrlab, bajarishlari zarur. Mavzulardan milliy g'oya va ma'naviyatning o'zaro ta'sirini to'laqonli tushunib yetmagan o'quvchi amaliy mashg'ulotda berilgan yuqoridagi jumlar mohiyatini ham yaxshi anglay olmaydi. Sababi tafakkur doirasi asta-sekinlik bilan shakllanib, rivojlanib kelayotgan o'n to'rt yoshli o'quvchi bu ikki tushuncha o'rtasida qanday bog'liqlik bor yoki yo'qligini o'zlari anglab yetishga qiynalishadi. Bu savolga javobni darslikdan olishlari lozim.

Darsliklar o'quvchining yosh xususiyatlarini (psixologiyasi, dunyoqarashi, qobiliyati hamda qabul qila olish darajasi) inobatga olgan holda tuzib chiqiladi. Yettinchi sinf o'quvchisi sakizinchi yoki to'qqizinchi sinflarga o'qitilayotgan darsliklarni o'zlashtirishga qiynalishi tabiiy. Sababi o'n olti yoshdagi bola bilan o'n to'rt yosh orasidagi bola ongining rivojlanishida sezilarli ravishda farq bo'ladi. Har bir mavzu yoki mavzular mohitini yoritishda foydalaniladigan ta'rif, tushuncha, atama va misollarni tuzishda va kiritishda buni inobatga olish zarur. O'quvchi yoshiga nisbatan murakkab tuzilgan darslikni o'zlashtirish darajasi past bo'ladi va ta'lim samaradorligining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

7-sinf darsligida yana bir holatni uchratish mumkin. "Insonparvarlik – xalqimizning ezgu fazilati" mavzusidagi insonparvarlikka berilgan ta'rifda "*Insonparvarlik* – odamzod qadri, uning erkinligi va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimi" deyilgan⁷⁴. Birinchidan, ta'rif uzun va murakkab bo'lgan bir yaxlit jumla. Ikkinchidan, "qobiliyatlarning har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish" fikrida aynan qanday qobiliyatlar haqida so'z borayotganligi to'liq yoritilmagan.

Bundan tashqari, darsliklarda o'quvchini butunlay chalkashtiradigan, noto'g'ri bilim va ma'lumotlar berilgan holatlarning uchrashi achinarli. Bu kechirib bo'lmas xato. 8-sinflar uchun "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat

⁷⁴ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: "Ma'naviyat", 2011. 95-b.

asoslari” darsligining R.Qo’chqorov va boshqalar tomonidan 2011-yilda qayta ishlangan va to’ldirilgan 6-nashrida “Ekologik madaniyat” mavzusida “Ekologiya” tushunchasiga ta’rif berilgan. Ta’rifda “*ekologiya – “tabiat uyi” bo’lmish borliqda yashayotgan tirik jonzoatlarni o’rganuvchi ilm sohasidir*” deyilgan⁷⁵. Bu ta’rif mazmunan xato berilgan. Birinchidan, tirik jonzoatlarni o’rganuvchi fan – bu *biologiya* deb ataladi, *ekologiya* deyilmaydi. Ikkinchidan, ekologiya fani tabiatni va uning sofligini, tozaligini saqlab qolish, xilma-xilligini asrash to’g’risidagi fan. Uchinchidan, tabiat faqatgina tirik organizmlardan iborat emas, jonsiz predmetlardan ham iborat. Ularni muhofaza qilish jonli tabiatni muhofaza qilishdan kam ahamiyatga ega emas. Shu sababdan ekologiya fani havo tozaligi, suv va tuproq tozaligi, tuproq eroziyasi va shu kabilarni ham har tomonlama o’rganadi.

Darsliklarda har bir keltirilgan misol qaysi sohaga oid bo’lmasin fanning predmeti bilan bog’lanishi kerak (bizning misolimizda esa ekologiya ma’naviyat va milliy g’oya bilan bog’lanishi kerak). Aks holda darslik o’zaro yaxshi bog’lanmagan turli xil ma’lumotlarning yig’indisi bo’lib qoladi. Ekologiya haqida gap ketdimi, demak uni madaniy ongning, ma’naviy madaniyatning uzviy bo’lagi sifatida, inson va jamiyatning tabiatga munosabati, rahm-shavqat, ezgulik, insonparvarlik, tozalik, poklik, saxovat, isrofgarchilikning oldini olish, tejamkorlik va shu kabi ma’naviy qadriyatlarning yuzaga chiqishi kerak ekanligi o’quvchilarga yetkazilishi kerak. Umuman olganda darsliklarda keltirilgan juda ko’p qiziqarli misollarning ma’naviyat bilan bog’lab tushuntirilishi zaif. O’quvchi esa ularni mustaqil bog’lashga qiynaladi.

7, 8, va 9-sinflarda o’qitiladigan **“Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”** predmetining nomini **“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”** deb, O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun tuzilgan **“Milliy istiqlol g’oyasi”** o’quv qo’llanmasi nomini esa **“Milliy g’oya”** shaklida o’zgartirish kerak. Chunki Oliy o’quv yurtlarida o’rganilayotgan ayrim darslik va o’quv

⁷⁵ Qo’chqorov R., Nishonova S., Musurmonova O., Qarshiboyev M. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 8-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011-yil, 88-bet.

qo'llanmalarni inobatga olmaganda va umuman ilmiy adabiyotlarda bugungi kunda **“milliy g'oya”** atamasi qo'llanilmoqda. Ilmiy tuushunchalarni birxillashtirish fan va o'quv jarayoni uchun juda muhim. Bundan tashqari, milliy istiqloлга erishganimizga sal kam chorak asr bo'lmoqda. Endi biz uchun istiqloлга erishish va uni mustahkamlash emas, balki milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarish dolzarbroqdir. Ushbu jihatdan ham **“milliy istiqloл g'oyasi”** o'rniga **“milliy g'oya”** tushunchasi qo'llanilishi mantiqiyroqdir.

5-sinflar uchun mo'ljallangan **“Vatan tuyg'usi”**⁷⁶ darsligining (o'quv qo'llanmasi) 4-nashri va 6-sinflar uchun mo'ljallangan **“Vatan tuyg'usi”**⁷⁷ o'quv qo'llanmasining to'ldirilgan va qayta ishlangan 6-nashri 2011-yilda X.Sultonov va M.Qarshiboyevlar tomonidan tuzilgan. Mas'ul muharrir A.Erkaev. Unda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik asoslarini shakllantiradigan mavzular o'quvchilarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashi va o'ziga xos tushuncha-tasavvurlarini hisobga olgan holda qiziqarli misollar, hayotiy dalillar hamda zamonaviy metodik usullar vositasida yoritib berilgan. Milliy qadriyatlarimiz aks etgan ertak, afsona va dostonlardan parchalar yoki bosh qahramonlarning jasorati, donoligi, vatanparvarlik xislatlari yoritilishi diqqatga sazovor. Bu o'quvchilarning bilimini, tafakkurini yanada oshirishga, boy tariximiz va milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni shakllanishiga ko'maklashadi, o'z navbatida tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Birgina misol 5-sinf **“Vatan tuyg'usi”** darsligining **“Vatanni anglash”** mavzusining mohiyati to'laroq va tushinarliroq ochib berish maqsadida **“Samarqandning noni”** rivoyati berilgan⁷⁸. Ushbu rivoyatda Bog'dod podshohlaridan biri Samarqand noniga havasi ketib, Samarqanddan eng mashhur nonvoyni chaqirtiradi va non yopish uchun zarur bo'lgan barcha narsani muhayyo qilsa ham Samarqand havosi va quyoshi

⁷⁶ Sultonov X. va Qarshiboyev M. **“Vatan tuyg'usi”**: Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi / Mas'ul muharrir A.Erkaev. – 4-nashri. – T.: **“Ma'naviyat”**, 2011.

⁷⁷ Sultonov X. va Qarshiboyev M. **Vatan tuyg'usi**: umumta'lim maktablarining 6-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi. – To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. – T.: **“Ma'naviyat”**, 2011.

⁷⁸ Sultonov X. va Qarshiboyev M. **“Vatan tuyg'usi”**: Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi / Mas'ul muharrir A.Erkaev. – 4-nashri. – T.: **“Ma'naviyat”**, 2011. 11-b.

bo'lmaganligi bois Bog'dodda Samarqanddagidek shirin non yoptira olmasligi aytilgan.

Darsliklar qayta-qayta ishlanib, yanada takomillashib bormoqda. Bu hol to'xtab qolgani yo'q, aksincha olimlar, tadqiqotchilar tomonidan darsliklarni qayta tuzish va takomillashtirish ishlari davom etmoqda va bir qancha yutuqlarga erishildi ham. Darslikda har bir bobdan so'ng mavzular bo'yicha savollar va testlar berilganligi o'quvchining bilimini yanada charxlashga ko'maklashadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek "Ma'naviyat asoslari" yangi fan bo'lganligi bois darsliklarda bir qancha kamchiliklar ham uchraydi. 5 va 6-sinf "Vatan tuyg'usi" o'quv qo'llanmalarida berilgan mavzular hajmi katta (o'rtacha 6,7 bet) va murakkab. O'quv rejada esa "Vatan tuyg'usi" predmeti o'quv yili davomida 17 soat ajratilgan. Faqatgina ixtisoslashtirilgan maktablar uchun 34 soat ajratilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bir soat dars 45 daqiqani tashkil etadi. Darsliklarda berilgan mavzular sonidan kelib chiqsak har bir mavzu bir soatdan o'tiladi. Hajm jihatdan katta bo'lgan mavzuni 45 daqiqada o'rganib bo'lmaydi. Oqibatda o'quvchi mavzuning mohiyatini to'laqonli tushunib yetmaydi. Mustaqil ravishda o'qish uchun topshiriq berilganda ham bola (5 va 6-sinfda 12 va 13 yoshdagi bolalar o'qiydi) uchun qiyinlik qiladi, zerikish paydo bo'ladi. Ayni paytda maktabda o'quv soatlarini ko'paytirish juda qiyin, ortiqcha soatlarni faqat an'anaviy predmetlarning o'qitilish soatini optimallashtirish hisobiga ma'lum darajada topish mumkin. Shu yo'l bilan "Vatan tuyg'usi" fanining o'qitish soatlarini 20 soatga ko'paytirish, mavzular hajmini qisqaroq va soddaroq, mavzular sonini esa ko'paytirilgan holda mazkur o'quv qo'llanma yanada takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarida o'rganilayotgan ma'naviyatga oid fanlar darslik, o'quv reja va dasturlari ham to'ldirilgan va qayta ishlagan yangi nashrda chiqqanligi quvonarli hol. Ammo ayrim metododlogik kamchiliklar ham uchraydi.

2007-yil S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov va S.A'zamxo'jayevlar tomonidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qayta ishlangan "Ma'naviyat asoslari"⁷⁹ darsligi ikki bob va o'n yeti paragrafdan iborat. Darslik aynan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tuzilganligi maqtovga loyiq. Darslikda mavzular bilan birgalikda o'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan mavzuni yaxshiroq, tushunarliroq va mustahkamroq o'zlashtirilishi maqsadida turli metodik usullar, o'yinlar, muammoli masalalardan iborat amaliy mashg'ulotlar ham berilgan.

Ammo, yuqorida ta'kidlanganidek darslikda ba'zi bir kamchiliklar uchraydi. Darslikda mantiqiylik va tarixiylik birligi buzilgan, bir yoqlama yondashuvlarga yo'l qo'yilgan, faqat o'tmishdagi yutuqlar o'z aksini topgan. Milliy ma'naviyatimiz hamma vaqt ham dunyodagi eng yuksak rivojlangan ma'naviyat bo'lgan deya olmaymiz. Darslikda ma'naviyat rivojlanishidagi tanazzullar, inqirozlar, ularning sabablari ustida mulohaza yuritilmagan. Natijada gullab-yashnab turgan ilg'or ma'naviyat nega qoloq ma'naviyatga aylanib qolgani, buning nafaqat siyosiy sabablari (toj-taxt talashlar, sulolalar o'rtasidagi kurash, urushlar va istilolar), shuningdek ijtimoiy-ma'naviy sabablari borligi to'g'risida umuman fikr bildirilmagan. Shu sababli ham darslikda tanqidiy ruh yetishmaydi. Tarixiylik ba'zi hollarda to'liq inkor qilingan.

Masalan, darslikdagi birinchi – "Ma'naviyatning rivojlanishi va uning jamiyat iqtisodiy- siyosiy hayotidagi o'rni" bobining to'rtinchi paragrafi "Din va ma'naviyat. Islom dini va tasavvuf ta'limotidagi ma'naviy barkamol inson masalasi"⁸⁰, beshinchi paragrafi esa ushbu mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot (Tasavvuf tariqati va unga qarshi oqimlar hamda bu oqimlarga qarshi kurash vazifalari)⁸¹ tarzida berilgan va undan keyin birdaniga "Temuriylar davri

⁷⁹Nosirxo'jayevS.H., LafasovM.F., A'amxo'jayeva S.Ma'naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri. T.: "Turon-Iqbol" nashriyoti. 2007.

⁸⁰ Nosirxo'jayevS.H., LafasovM.F., A'amxo'jayeva S.Ma'naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri. T.: "Turon-Iqbol". 2007. 53-b.

⁸¹ O'sha darslik, 77-b.

ma'naviyati" ga o'tilgan (oltinchi paragraf)⁸². Darslikning "Ma'naviyatning tabiat bilan aloqasi va jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi roli" nomli ikkinchi bobida esa "Jadidchilik va jadidlarning ilm-ma'rifat yo'lidagi harakatlari" amaliy mashg'uloti (o'n birinchi paragraf) berilgan⁸³. Bu yerda ma'naviyat rivojlanish bosqichlari tarixiylik asosida emas, balki eklektik qorishtirib yuborilgan g'oyaviy-mafkuraviy va madaniy mezonlar asosida aniqlangan.

Islom dinining markaziy Osiyoga kirib kelishi (VIII asr) va tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi (XI-XII asrlar)dan temuriylar davrigacha (XIV asr ikkinchi yarmi) bo'lgan oraliq vaqt ikki asrni tashkil etadi. Aynan mana shu davrda milliy ma'naviyatimizni tanazzulga uchratgan mo'g'ullar istilosi to'g'risida darslikda hech qanday ma'lumot berilmagan. Axir mo'gul istilosi bizning xalqimiz boshiga mislsiz vayronagarchiliklarni keltirdi. Shaharlar, madaniy yodgorliklar, kutubxonalar tuproqqa ko'mildi. Suv inshootlari buzib tashlandi, natijada sug'orish tizimi ham izdan chiqdi hamda dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik oqsab qoldi. Ilk o'rta asrlarda erishilgan ilm-fan yutuqlari yo'q qilindi, ma'naviy ong, madaniy hayot esa nochor ahvolga tushdi. Xalqda real, baxtli va to'kin hayotga bo'lgan ishonch yo'qoldi. Oqibatda xalqni hayolan ovuntira oladigan o'ta mistik ong shakllanishiga moyillik kuchaydi. Ma'naviyatimizning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan mana shu kabi omillar, ularni keltirib chiqargan sabab hamda oqibatlari darsliklarda yoritilishi lozim.

Mazkur darslikning "Din va ma'naviyat. Islom dini va tasavvuf ta'limotidagi ma'naviy barkamol inson masalasi" nomli to'rtinchi mavzusida "Din so'zi va dunyo dinlari", "Islomning mohiyati", "Qur'oni karim" – ibrat kitobi", "Hadislar – xalq mulki", "Tasavvuf ta'limoti", "Vijdon erkinligi", "ijtimoiy xavfli mazhablar" va "Vahobiylarning mohiyati" kabi kichik-kichik

⁸² O'sha darslik, 95-b.

⁸³ O'sha darslik, 174-b.

bo'limlar berilgan⁸⁴. Mavzuda ko'proq Islom dinining kelib chiqishi va tarqalish tarixiga ahamiyat berilgan. Ammo uning Markaziy Osiyoga kirib kelishi, natijada yuz bergan salbiy va ijobiy oqibatlari yoritib berilmagan. Islom dini xalqimiz ma'naviy madaniyatining ba'zi sohalarini (haykaltaroshlik, raqs, teatr, tasviriy san'at, diniy e'tiqod) inkor etdi. O'z navbatida islom davlatlari chegaralari g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qarab kengayganligi, butun islom olamida arab tilidan foydalanish joriy etilganligi turli xalqlarning o'zaro madaniyatlari rivojlanishiga va ilm-fan taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Aynan bizning – Al-Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi ajdodlarimiz butun dunyo ilm-fani yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Mavzuning “Tasavvuf ta'limoti”⁸⁵ qismida tasavvuf (so'fiylik) tariqati to'g'risida umumiy ma'lumot berilgan. Uning yaxshi jixatlariga to'xtalib o'tilgan. Darslikda berilgan axborot orqali o'quvchi, agar misol tariqasida aytadigan bo'lsak ma'lum bir davr , tuzum yoki e'tiqod tog'risida tasavvurga ega bo'ladi. Shaxsiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan ayrim holatlarda tegishli xulosa va qarorlar chiqara olish qobiliyati shakllanishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari, tarix insoniyat taraqqiyotida ibrat vazifasini o'taydi. Shu o'rinda ma'naviyatimizning yuksalish davri tarixi ham.

Tasavvufning hamma tomonlarini birdek ibrat qilib ko'rsata olmaymiz. Birinchidan, tasavvuf komillikni insonning ichki dunyosiga qaratadi. Ikkinchidan, unda o'ta diniy mistik dunyoqarash mavjud bo'lib, ratsional e'tiqodga emas, balki irratsional e'tiqodga tayanadi. Uchinchidan, tasavvufdagi ayrim qarashlar bugungi zamon taraqqiyotiga, turmush tarzimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Tarkidunyochilik, hamma narsadan voz kechish va oxir-oqibat o'zligidan kechish so'fiylik (tasavvuf) ta'limotining mohiyatini tashkil qilgan. Tasavvufda “komil inson” deb butun dunyo lazzatlaridan voz kecha oladigan, Haq va haqiqatga erishishga va Olloh vasliga yetishga intilib, faqat ilohiy ishq

⁸⁴ Nosirxo'jayevS.H., LafasovM.F., A'amxo'jayeva S.Ma'naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri. T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2007. 53-77-b.

⁸⁵ O'sha darslik, 64-b.

bilan yashaydigan kishiga nisbatan tushunilgan. Ushbu ta'limotni bugungi ma'naviy hayotimizga to'laqonli bog'lay olmasligimizning sababi shundaki, har bir inson avvalo o'zidagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishi, jamiyat, taraqqiyot va ilm-fandan uzilib qolmasligi, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan xabardor bo'lishi va munosabatini bildirishi, o'z oldiga yuksak marralar va ideallarni qo'yib, ularga erishish uchun bor kuch-g'ayratini safarbar eta oladigan intellektual shaxs bo'lib shakllanishi lozim.

Darslikning “Temuriylar davri ma'naviyati” (oltinchi paragraf) mavzusida ham ma'naviyatimizning tarixiy shakllarini yoritishda bir yoqlama yondashuv – tarixning faqatgina yaxshi tomonlaridan atroflicha foydalanilgan. Unda “Davrga ta'sir etgan omillar”, “Obodonchilik ishlari”, “Boshqaruv madaniyati”, “Amir Temurning ma'naviy salohiyati”, “Temur tuzuklari”da ma'naviyat masalalari”, “Qonun ustuvorligi”, “Pok axloq va ilm – elning ko'rki”, “San'at va hunar rahnamosi”, “Tarix oldidagi xizmat”, “Mustaqillik va Temuriylar merosi” kabi masalalar aks etgan⁸⁶. Ta'kidlab o'tish joiz, mavzudagi berilgan masalalar va ularning yoritilishi maqtovg'a loyiq. Bular orqali o'quvchilarda Temuriylar davri ma'naviyati salohiyati, uning milliy ma'naviyatimiz hamda jahon ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga qo'shgan hissi va ahamiyati qay darajada ekanligi to'g'risida bilim hamda tasavvur hosil bo'ladi. Ammo bu davrda yaxshi jihatlardan bilan birgalikda uni tanazzulga uchrashiga sabab bo'lgan holatlar ham mavjud. Temuriy amrlar va beklar o'rtasidagi taxt uchun olib borilgan ayovsiz kurashlar natijasida saltanat parchalanib ketdi. Diniy-mistik tafakkurning rivojlanishi va ilm-fanga nisbatan ayovsiz olib borilgan kurash va qarshiliklar ma'naviy-madaniy taraqqiyotni tanazzulga olib keldi. Diniy mutaasiblik avj oldi. Hattoki ba'zi bir o'z manfaatini ko'zlaydigan mutaasib “dindor”larning gapi bilan Abdulatif o'z otasi – Ulug'bek Mirzoni qatl ettirdi. Mirzo Ulug'bek buyuk sarkarda, adolatparvar davlat arbobi bo'lish bilan birga butun jahon ilm-fan taraqqiyotiga, ayniqsa falakkiyot ilmiga katta hissa qo'shgan astranom olim ham

⁸⁶ Nosirxo'jayev S.H., Lafasov M.F., A'amxo'jayeva S. Ma'naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri. T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2007. 95-111-b

edi. U Samarqandda islom olamida yagona bo'lgan ilmiy maktab tashkil qildi. Ulug'bek qurdirgan rasadxona – observatoriya Oрта asrlar uyg'onish davrining olamshumul kashfiyoti hisoblangan. Mirzo Ulug'bek qatldan so'ng uning maktabi barham topdi. Musulmon mamlakatlarida boshqa bunday yirik ilmiy maktab vujudga kelmadi, izdoshlari ta'qib ostiga olindi, rasadxonasi esa buzib tashlandi. Temuriylar davridan so'ng Movarounnahr uch xonlikka bo'linib ketdi, an'anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi va ma'naviy turg'unlik yuzaga keldi.

Milliy ma'naviyatimiz tarixidagi mana shu kabi qora sahifalar darsliklarda ro'yi-rost yoritib berilishi zarur. O'quvchida tahliliy tafakkurni shakllantirish, tarixda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarning sabab va oqibati, uning bugungi zamon taraqqiyotidagi ta'siri nechog'lik ekanligi to'g'risida tushuntirish, real hayotda ham yuz beradigan shunga o'xshash holatlarda kerakli mulohaza yuritishga hamda mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining 2010-yil 1-iyuldagi 6/1 va 4/2-sonli qo'shma Hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanidan Davlat ta'lim standarti sharhlari va uzviylashgan o'quv dasturi sifatida uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish uchun tavsiya etilgan. Dastur t.f.n prof. M. Lafasov, p.f.d prof. M.Quronov va Sergeli politexnika kasb-hunar kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri F.Sindorovalar tomonidan tuzilgan. Dastur 5 bo'limdan iborat.

O'quv dasturlardagi ba'zi bir kamchiliklar, mavzular ma'no-mazmunining o'zaro takrorlanishi va mavzulardagi ko'tarilgan masalalar ajratilgan soatlarga mos kelmasligi muammolari yuzasidan filologiya fanlari nozodi, TDYuI dotsenti R.Qo'chqorov ham o'zining fikr va mulohazalarini bildirgan. U o'zining "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining o'quv dasturlarini takomillashtirish muammolari"⁸⁷ nomli maqolasida aynan mazkur – "Milliy

⁸⁷ Qo'chqorov R. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining o'quv dasturlarini takomillashtirish muammolari // Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013. – B.60-64.

istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani o'quv dasturida uchraydigan ayrim “nuqsonli” holatlarni keltirib o'tadi.

Dastur mavzularning nomlari biroz boshqachaligiga qaramay, ular doirasida o'quvchi talabalarga tushuntirilmoqchi bo'lgan ma'no-mazmunning o'zaro takrorlanishi (masalan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlangan yuqoridagi dasturda “G'oya va mafkuralarning jamiyat hayotidagi o'rni” shaklida, oliy oquv yurtlari bakalavriat bosqichining amaldagi dasturida – “Jamiyat taraqqiyotining g'oya va mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi” shaklida; mos ravishda birinchisida “Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar”, ikkinchisida – “Globalashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi”; birinchisida “Komil insonni voyaga yetkazishda mafkuraviy tarbiya omillarining ahamiyati”, ikkinchisida – “Milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirish: yangicha uslublar va yondashuvlar” va h.) hamda mavzular doirasida o'quvchi-talabalarga singdirilmoqchi bo'lga bilim-materiallarning ajratilgan soatlarga mutlaqo mos kelmasligi⁸⁸ kabi kamchiliklardan holi emas.

2.2. Oliy o'quv yurtlarining bakalavr va magistratura bosqichlarida ma'naviyatga oid fanlar o'quv dasturlaridagi mavjud muammolar

Oliy ta'limning bakalavr va magistratura bosqichida ma'naviyatga oid mutaxassislik va nomutaxassislik yo'nalishlarida o'qitiladigan fanlar va ularning o'quv dasturlari olimlar va tadqiqotchilarning izlanishlari natijasida doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Oliy ta'limda, birinchidan, nomutaxassis yo'nalishlarda “Ma'naviyatshunoslik”, “Dinshunoslik” va “Madaniyatshunoslik” predmetlari o'qitiladi.

Ikkinchidan, Respublikamizning o'qituvchilar tayyorlaydigan qator davlat universitetlari va pedagogik institutlarida “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlanmoqda. Ularning ayrimlarida ushbu mutaxassislik bo'yicha magistratura ham mavjud. Tabiiyki,

⁸⁸ Qo'chqorov R. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining o'quv dasturlarini takomillashtirish muammolari // Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013. – B.62-63.

ushbu yo'nalish mutaxassislariga ma'naviyatga oid predmetlarning butun bir majmuasi o'qitiladi.

“Ma'naviyat” va uning tarkibiga kiruvchi predmetlarning o'quv dasturlarida berilgan mavzular mazmun jihatdan ancha boyib borayotganligi quvonarli hol, ammo hali ham o'quv dasturlarida bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

Dastlab nomutaxassis yo'nalishlarida o'qitiladigan “Ma'naviyat asoslari” va “Dinshunoslik” fani o'quv dasturlarini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 392-son buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda shu yilning 8-noyabrida BD-1.04 raqami bilan ro'yxatga olingan “Ma'naviyat asoslari” fanidan namunaviy dastur f.f.d prof. S. Otamurodov, t.f.d prof M.Abdurahmonov va f.f.n dots. S.Xusanovlar tomonidan tuzilgan. Dastur uch bo'limdan iborat. I bo'lim “Ma'naviyat, uning jamiyat va inson kamolotida tutgan o'rni” deb ataladi. Ushbu bo'limning birinchi mavzusi – “Ma'naviyat tushunchasi, predmeti, maqsadi va vazifalari” ni o'qitishga bag'shlangan. Ushbu mavzuning “Ma'naviyat predmeti” deb boshlangan xat boshisida quyidagi masalar berilgan: “Inson va jamiyat ma'naviy hayotini o'rganuvchi fan. Uning maqsadi jamiyat ma'naviy taraqqiyotining asosi ekanligi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi”. Bu yerda fanning predmeti mavhumligicha qolmoqda. Fan predmeti nimadan iborat ekanligiga hech qanday ishora yo'q. Ikkinchi jumlada esa fanning obyeksi haqida gap ketmoqda va navbatdagi savolda uning maqsadi masalasi qo'yilmoqda. Keyin esa ma'naviyat va ma'rifat masalasi qo'yilgan. Ma'naviyatning tuzilmasi ochib berilmasdan, inson ongi, tafakkuri, ijtimoiy ong shakllari va xalq mentaliteti bilan munosabatlarga aniqlik kiritilmasdan uning ma'rifat bilan uyg'unligi haqida gapirish nazarimizda biroz erta. Umuman bu masalada savollarning qo'yilishida izchilik va ilmiy tahlil, zarur ilmiy axborot (bilim) berish yetishmaydi. Turli jiddiy masalalar batafsil ko'rilmasdan qorishtirib yuborilgan.

Shu mavzuning navbatdagi xat boshisida quyidagi masalalar belgilangan: “Ma’naviyat”ning kategoriyalari. O’zlikni anglash, bilimdonlik, qalbi tozalik, sahiylik, samimiylilik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik va boshqalar”. Ko’rinib turibdiki dasturni tuzuvchilar kategoriya tushunchasiga sayoz yondashganlar. Qayd etish lozimki har bir fanning kategoriyalari o’sha fanning eng umumiy ilmiy tushunchalarini, bir vaqtning o’zida mezonlari va tamoyillarini hamda qonuniyatlarini ifodalaydi. Shu bilan mazkur fanning boshqa muhim xususiy tushunchalaridan mazmunining qamrovliligi va teranligi bilan ajralib turadi. Xususiy ilmiy tushunchalar kategoriyalarning u yoki bu jihatini ochib beradi. Dasturda belgilangan “kategoriya”lardan faqat “o’zlikni anglash” va “e’tiqodlilik”gina kategoriya hisoblanishi mumkin. Qolganlari xususiy tushunchalardir va ularning deyarli hammasi axloqiy va diniy xislatlarni ifodalaydi. Ushbu munosabat bilan yana shuni ta’kidlash lozimki, e’tiqodlilik emas, kategoriya sifatida olinsa “e’tiqod” bo’ladi. Mehr-shafqatlilik va boshqa “lik” qo’shimchasi qo’shilgan tushunchalar haqida ham shunday deyish lozim. “Mehr-shafqat” axloqning muhim tushunchasi, “mehr-shafqatlilik” esa shaxs tomonidan uning o’zlashtirilishidir. Fundamental o’zak, tushuncha bilan uning turli darajada voqeligi dasturda chalkashtirib yuborilgan.

Ma’lumki, “ma’naviyat” faqat axloqiy ong va uning namoyon bo’lish shakllaridan iborat emas. Unga estetik ong va umuman nafosatning rang-barang shakllari, diniy ong va diniy madaniyat bilan, siyosiy va huquqiy ong va madaniyat bilan, ilmiy dunyoqarash bilan bog’liq va ma’naviy hayotning boshqa sohalariga oid kategoriya va tushunchalar ham kiradi. Dasturni tuzuvchilar, albatta, buni biladilar, ammo ayni o’sha mavzuni yoritishda buni sedan chiqarib, masalaga o’ta tor yondashganlar. Bu yerda masala etika, estetika, dinshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlarning kategoriya va tushunchalaridan ma’naviyat fani qanday va qay darajada foydalanishi hamda ma’naviyat fanining ulardan farq qiladigan o’z kategoriyalari nimalardan iboratligi qabilida qo’yilishi, nazarimizda, tog’riroq bo’ladi. Masalan, ma’naviyat fanining

kategoriyalari birinchi galda “ma’naviyat” kategoriyasining o’zi, shuningdek “ma’naviy ong”, “inson qalbi” (hissiy olami), “inson tafakkuri” (aqliy olami), “ma’naviy muhit”, “ma’naviy madaniyat”, “ma’naviy ehtiyojlar”, “ma’naviy qadriyatlar”, “shaxs ma’naviyati”, “jamiyat ma’naviyati”, “ma’naviy yuksalish”, “ma’naviy erkinlik va mas’uliyat”, “milliy g’oya” va “o’zlikni anglash”, “milliy ayniyat” (milliy identlik) kabilardir. Ular ma’naviyat faniga xos kategoriyadir.

Birinchi bo’limning “Ma’naviyat” tarkibiy qismlari va ularning o’zaro munosabatlari” deb nomlangan uchinchi mavzusida “Ma’naviyat”ning tuzilmasi, tarkibiy qismlari ochib berilmagan. Faqat ma’naviyatning namoyon bo’lish shakllari sifatida “ma’naviy madaniyat”, “ma’naviy meros”, “madaniy meros” va “ma’naviy qadriyatlar”, shu jumladan “diniy qadriyatlar” berilgan. Mazkur yondashuv, nazarimizda, ancha bir yoqlama va cheklangan. Unda faqat ma’naviyatning predmetlashgan, ya’ni madaniyat, qadriyat, madaniy meros shaklida voqe bo’lishi e’tirof etilgan. Ma’naviyat esa eng avvalo insonning ma’naviy ongini, qalbini, sobit tuyg’ularini hamda tafakkuri, g’oyalari va ideallari mazmunini ifoda etadi. Ya’ni birinchi galda u predmetlashgan shaklda emas, ideal shaklda voqe bo’ladi. Ikkinchidan, ma’naviyat bu jarayondir, insonning g’oyalar, qadriyatlar, ma’naviy boyliklar yaratish jarayonidir, faqat meros ya’ni yutuqlar yig’indisi emas. Ma’naviyat shuningdek inson va jamiyatning o’z ijodkorlik, bunyodkorlik salohiyatini namoyon qila bilishi, uning ongli ravishda erkin tanlay bilishi va mas’uliyati hamdir. Ma’naviyatning eng muhim ushbu jihati, ya’ni ideal soha sifatida voqe bo’lishi va faoliyat ko’rsatishi dastur mualliflari tomonidan unutilgan.

Bundan tashqari, ma’naviyat jamiyatdagi ijtimoiy, axloqiy, siyosiy-mafkuraviy muhit sifatida ham mavjud. Ijtimoiy-axloqiy va siyosiy muhit buzilgan mamlakatlarda odamlar o’rtasidagi munosabatlar buziladi, insonparvarlik tamoyillari unitiladi, har xil mojarolar va to’qnashuvlar sodir bo’adi, hatto qon to’kilishi mumkin. Shu sababdan ba’zi olimlar ma’naviy muhitni ma’naviyatning muhim tuzilmasi hisoblaydilar. Bunday yondashuvga qo’shilish mumkin.

Mazkur o'quv dasturni har bir mavzusi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak juda ko'p vaqt va joy ketadi. Shu bois yuqorida aytilganlar bilan cheklanib dasturning boshqa kamchiliklari to'g'risida ham ikki og'iz fikr bildirib o'tish zarur.

Dasturning ikkinchi bo'limi "Ma'naviyatning tarixiy, nazariy va amaliy zaminlari" deb nomlangan. Mazkur bo'limning "Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviyat va ma'rifat" mavzusidan keyingi mavzu "Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni" deb ataladi. Mavzuning juda g'aliz ifoda etilgani ustida to'xtalib o'tirmaymiz. Temuriylar davridan keyin Jadidlargacha o'tgan 450 yillik davr haqida bir og'iz ham so'z yo'q. Axir aynan o'sha davr ma'naviyatimiz va xalqimiz tarixida eng og'ir inqiroz davri bo'ldi. Uning sabablarini o'rganmasdan biz tarixdan saboq chiqara olmaymiz. Ushbu ma'noda mazkur dastur faqat o'tmishdagi yutuqlarni e'tirof etish bilan cheklanib qolgan. Mazkur dastur asosida beriladigan bilim bir tomonlama bo'lib qolish bilan bir qatorda talabalarni tahlil qilish va obyektiv ilmiy xulosa chiqarish madaniyatiga o'rgatmaydi.

Bakalavriat yo'nalishida "Ma'naviyat asoslari" bilan birgalikda "dinshunoslik" fanidan namunaviy dastur ham O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 392-son buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda shu yilning 8-noyabrida BD-1.04-1 raqami bilan ro'yxatga olingan. Umuman olganda "Dinshunoslik" fanidan namunaviy dastur t.f.n dots. H.H. Yo'ldoshxo'jayev, t.f.n dots. D.O.Rahimjonov va t.f.n dots. M.M.Komilovlar tomonidan yaxshi tuzilgan. Ko'tarilgan masalalar dunyo dinlari tarixiy shakllari va tadriji to'g'risida yetarlicha bilim bera oladi. Lekin, uning ba'zi bir mavzularini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, "Islomdagi mazhablar va g'oyaviy-siyosiy oqimlar" mavzusidagi aqidaviy ta'limotlarni aniqroq savollarga bo'lish, unda mu'taziliylikni va hozirgi paytda ham faoliyat ko'rsatayotgan moturudiya va ash'ariya ta'limotlarini ketma-ket berish maqsadga muvofiq. Sunniylik mazhablarini ham alohida har

to'rtala mazhabni ajratgan holda berilsa yanada yaxshi bo'lar edi. Bugungi Islom niqobi ostidagi ekstremistik harakatlarning asl maqsadini fosh qilishga, ayniqsa radikal Islom tarafdorlari tomonidan ayrim islomiy tushunchalarni, xususan "hijrat", "jixod", "mazxabsizlik", "takfir" va shu kabi ayrim fundamental tushunchalarni noto'g'ri talqin qilishning tanqidiga alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz.

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislar to'rt yil davomida ma'naviyatga oid predmetlarni o'qiydi. Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv rejaga kiritilgan predmetlar o'zgarib turadi (predmet nomi o'zgarib, undagi mavzular mohiyati yanada takomillashtiriladi yoki ayrim predmetlar chiqarilib o'rniga boshqasi kiritiladi). 2011-yilda tasdiqlangan o'quv rejada "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" blokida "Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik" va "Madaniyatshunoslik" predmetlari, "Ma'naviyat asoslari kursi" blokida, "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi", "Milliy ma'naviyat asoslari", "Islom dini asoslari va ma'naviyati", "Oila ma'naviyati" va "San'atning ma'naviy asoslari" predmetlari haqmda "Ixtisoslik fanlari" blokida esa "Milliy taraqqiyotning g'oyaviy asoslari" va "Milliy ma'naviy tiklanish" predmetlari kiritilgan. 2012-yilda tasdiqlangan o'quv rejada "Ma'naviyat asoslari kursi" blokida quyidagi predmetlar kiritilgan: "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi", "Ma'naviyat asoslari", "Madaniyatshunoslik asoslari", "Dinshunoslik", "Oila ma'naviyati" va "San'atning ma'naviy asoslari". "Ixtisoslik fanlar" blokida "Milliy taraqqiyotning g'oyaviy asoslari", "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" va "Milliy ma'naviy tiklanish" predmetlari kiritilgan. 2013-yilda tasdiqlangan o'quv rejada yuqoridagi predmetlar o'zgarmagan.

Ammo 2014-yil o'quv rejada sezarli o'zgarish borligini ko'rishimiz mumkin: "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" blokida "Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik" va "Madaniyatshunoslik" predmetlari hamda "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" predmeti kiritilgan. "Umumkasbiy fanlar" blokida "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", "Milliy g'oya targ'iboti

texnologiyalari”, “Ma’naviyatshunoslik” va “Dunyo dinlar tarixi” predmetlari kiritilgan.

“Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishida o’qitiladigan ma’naviyatga oid fanlar o’quv dasturlari bir qancha olimlar va tadqiqotchilarning tinimsiz izlanishlari natijasida takomillashib bormoqda.

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2012-yil 14-martdagi 107-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan hamda BD5111600-308 raqami bilan ro’yxatga olingan “Ma’naviyatshunoslik” fan dasturi f.f.d prof. M.S.Imomnazarov, t.f.n prof. M.Lapasov va f.f.n dots. M.A.Sobirovalar tomonidan tuzilgan. Dastur to’rt bo’limdan iborat. Birinchi bo’lim “Mustaqillik – ma’naviy tiklanish va yuksalish asosi” deb nomlanib, undagi “Milliy g’oya, mafkura, ma’naviyat. O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviyat nazariyasi umummetodologik asoslarining ishlab chiqilishi” nomli ikkinchi mavzuda berilgan quyidagi savollar e’tiborimizni tortdi: “I.A.Karimovning mustaqil O’zbekistonni siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy rivojini ta’minlash bo’yicha yaratgan tadqiqotlari va ma’ruzalarida bugungi kun umumbashariy muammolariga munosabat va Borliq haqiqatiga yangicha yondashuvninglarning namoyon bo’lishi” va “Inson olam mehvari” g’oyasining Prezident asarlarida ifodalanishi va buning sabablari”. Prezident asarlarida aynan ushbu iborani biz uchratmadik. “Mehvar” aslida charxning o’qini bildiradi. Adabiyotlarda biron narsa aylanadigan o’qni, shu jumladan yerning ikki qutbi o’rtasidan hayolan o’tkaziladigan o’qni ham “mehvar” deyish qabul qilingan. Mumtoz badiiy adabiyotlarda va falsafiy risolalarda majoziy mazmunda “inson olam mehvari” ya’ni “butun olam inson tevaragida aylanishi kerak, Olloh olamni inson uchun yaratdi” degan qarashlar mavjud. Ushbu tushunchani madaniy meros bilan bog’lab qo’llansa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Mazkur bo’limning uchinchi mavzusi “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatimizning uyg’unligi. Ijtimoiy fanlar metodologiyasi va milliy ma’naviy meros” deb nomlanadi. Mavzuda “Ijtimoiy

fanlarning shakllanishida naqliy va aqliy bilimlar nisbati” degan savol qo’yilgan. Birorta fan shu jumladan ijtimoiy gumanitar fanlar naqliy bilimga tayanishi mutlaqo to’g’ri emas. Unda ular fanligini yo’qotadi, rivoyatga aylanadi. Naqliy bilimlar, aqliy bilimlar bilan birgalikda ilohiyot ilmida qo’llaniladi.

Ma’lumki, ushbu tamoyilni kalom ilmining hozirgi mavjud ikki yo’nalishidan birining asoschisi buyuk ajdodimiz Abu Mansur Motrudiy kiritgan. Naql – ajdodlardan kelayotgan va buyuk diniy arboblardan tomonidan haqiqat deb topilgan rivoyatdir. Ijtimoiy gumanitar fanlar, rivoyat asosida (ertak, afsona, asotir, hikoyat, matal va hokazolar) emas, balki xolis tadqiqotlar, tajribalar, mantiqiy-nazariy tahlillar asosida haqiqatni asoslaydi. Adabiyot va san’at, xalq og’zaki ijodida naql badiiy vosita va obraz sifatida qo’llaniladi. Bu juda keng tarqalgan hodisa. Lekin adabiyotshunoslik va san’atshunoslik fanlari ularni aql yordamida tahlil qiladi. Badiiy vosita sifatida tushuntiradi, ular ifodalayotgan g’oyalarni ochib beradi. Ushbu holatda ham biz yana dastur tuzuvchilarning fan predmeti va obyekti, fan metodologiyasi masalalarida qo’pol xatoga yo’l qo’yayotganiga guvoh bo’lamiz.

Dasturning ikkinchi bo’limi “Ma’naviyatni anglash. Milliy ma’naviyatimiz ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi. Ma’naviy hayot mezonlari” deb nomlanadi. Ushbu bo’limning “Din va ma’naviyat” mavzusida quyidagi masalalar ko’tarilgan: “Mustaqillik sharoitida dinga munosabatning tubdan o’zgarishi. Din va ma’naviyat: umumiy va farqli jihatlari. Dinning zohiriy va botiniy jihatlari. Ibodat nima? Imon-e’tiqod ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Dinda ilm va ibrat. Taqlidiy va tahliliy imon tushunchalari. Din siyosatmi, ma’naviyatmi? Shariat, islom huquqi va islom ma’naviyati. Inson qalbiga zo’rlilik bilan kirib bo’lmaydi. Aqidaparastlikning gnoseologik, siyosiy-ijtimoiy av tarixiy ildizlari. Islomda din siyosatdan qachon ajralgan? Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhida g’arazli talqini sifatida. Yosh avlodni milliy ma’naviyatimiz an’analari ruhida tarbiyalash – ular ongini turli g’arazli “oqimlar” ta’siridan himoyalashning eng samarali yo’li. Diniy bag’rikenglik va e’tiqodda

ustuvorlik”. Ko’rinib turibdiki mavzuda din va dunyoviy masalalar qorishtirib yuborilgan. Badiiy adabiyotdan ham ko’proq ma’naviyatning diniy jihatlariga oid misollar keltirilgan. Ilmiy g’oyalar va ularning xalqimiz dunyoqarashiga, ma’naviyatiga ta’siri haqida deyarlik hech qanday misollar hatto ishoralar yo’q. Xususan olamning, koinotning va yer kurrasining tuzilishi to’g’risidagi Al-Farg’oniy, Al-Beruniy, Mirzo Ulug’bek va Ali Qushchi qarashlari, Al-Xorazmiyning algebraik g’oyalari, o’nlik sistemasi, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarimizning “sabab-oqibat” to’g’risidagi qarashlari va g’oyalari nafaqat xalqimizning balki butun insoniyatning ilmiy tafakkuri, dunyoqarashi, binobarin ma’naviyati shakllanishiga ulkan hissa qo’shganini butun dunyo tan oladi. Prezidentimiz Islom Karimov ham “Zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemiyl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g’urur bilan ta’kidlash lozim” ekanligini e’tirof etadi⁸⁹.

Al-Xorazmiy, Al-Farg’oniy, Mirzo Ulug’bek va Ali Qushchining matematika va matematik formallashtirish usuliga qo’shgan hissasi bugungi kunda insoniyat ilmiy tafakkurining asosiy usullaridan birini tashkil qiladi. G’arb olimlarining e’tirof etishicha algoritmik nazariya yaratilmaganida bugungi kundagi telekommunikatsiya tizimi, jumladan kompyuterlar, mobil aloqa va axborot texnologiyalari vujudga kelmas edi. Lekin negadir ular ushbu predmet dasturida hisobga olinmagan. Hatto dasturning uchinchi – “Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari” bo’limida ham ushbu masalalar yoritilmagan. Faqatgina badiiy adabiyotimiz tarixi va erishgan yutuqlari hamda ko’proq diniy qarashlar bilangina chegaralangan. Shu sababdan mazkur dastur ilmiy metodologik jihatdan zamonaviy talablarga javob bermaydi deyish mumkin.

Shu bo’limning “San’at, adabiyot, ma’naviyat” mavzusida quyidagi masalalar berilgan: “Ma’naviyat va nafosat. Shaxs ma’naviyati – inson botiniy

⁸⁹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008. 41-b.

go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari”. Ramz – belgi. Ramz odamlar uchun timsol. Ma'lum bir guruh odamlarining o'zaro kelishuvi asosidagi belgidir. Ramz konvensial (kelishuv) harakterga ega. Konvensial harakterga ega bo'lmasa shaxsiy belgi yoki kodga aylanadi.

Badiiy adabiyotda ramz – bu obrazdir. U ijodkorning dunyoqarashi, tafakkuri va hissiy o'y kechinmalaridan yaraladi. Dasturda masalaga faqatgina bir tomonlama yondashilgan. Chunki ramz va timsol faqat badiiy adabiyotda emas butun ilm-fanda (matematika, fizika, kimyo, tarix, ona tili va h.k.) mavjud. Masalan, matematika fanining asosini belgilar (0123456789, +, -, =, /, *, :, <, >, %, va h.k.) tashkil qiladi. Tabiatda kechayotgan jarayonlar fizikada, kimyoda formulalar hamda tabiatdagi barcha moddalar elementlari ham belgilar bilan ifodalanadi. Ilm-fandagi ramz va belgilar kelishuvga asoslangan – butun bir insoniyat qabul qilgan va foydalanadigan timsollardir. Tilning o'zi ham ramziy belgilardir. Tilning asosida ham tabiiy, tarixiy ravishda shakllangan konvensiallik bor. So'zlar ramziy, ya'ni belgilovchi harakterga ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek mazkur ish hajmini ko'paytirmaslik va boshqa o'quv dasturlaridagi ayrim holatlarni ham aytib o'tish maqasadida uchinchi bo'limda berilgan mavzular va undagi masalalar tahlilini keltirmadik.

Magistratura bosqichining “Ma'naviyat asoslari” mutaxassisligida o'qitiladigan “Ma'naviyatning ilmiy asoslari” fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-noyabrdagi 467-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda MD5A111601-2.02 raqami bilan ro'yxatga olingan. Bu dasrur ham f.f.d prof. M.S.Imomnazarov va t.f.n prof. M.Lafasovlar tomonidan tuzilgan.

“Ma'naviyatning ilmiy asoslari” fanining o'quv dasturida bakalavr bosqichida o'tiladigan “Ma'naviyatshunoslik” fan dasturidagi mazvular va masalalar aynan takrorlanib kelgan (predmetlararo bog'liqlik va takrorlanishlar xususida keyingi – uchinchi bobda alohida to'xtalamiz). Shu bilan birga

yuqorida ko'rib chiqilgan "Ma'naviyatshunoslik" dasturidagi kamchiliklar mazkur o'quv dasturida ham uchraydi.

Bundan tashqari, dasturning "Din va ma'naviyat" nomli mavzusida "Ijtimoiy fanlarning diniy va milliy asoslari" masalasi berilgan. Ushbu savolning e'tiborimizni tortgan jihati shundaki, milliylik ijtimoiy gumanitar fanlarning predmetiga tegishli emas, balki uning obyektiga tegishlidir. Chunki har bir xalqning ijtimoiy gumanitar fanlari birinchi navbatda o'sha xalqning hayotini, o'sha xalq uchun dolzarb bo'lgan masalalarni va mavzularni o'rganadi. Masalan, o'zbek tilshunoslari va adabiyotshunoslari, tarixchilari birinchi galda o'zbek tilini, adabiyotini va tarixini o'rganadi. Lekin boshqa xalqlarga mansub bo'lgan olimlar ham ushbu sohalarni o'rganishlari mumkin va ilmiy natijalari agar haqqoniy va xolis bo'lsa o'zbek tadqiqotchilari natijalaridan farq qilmaydi. Ilmiy usullar va vositalar nuqtai nazaridan har qanday fan milliy emas, umuminsoniydir. Milliylik uning obyektidan tashqari muayyan xalqning ehtiyojlariga xizmat qilishida ko'rinadi va namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy fanlarning diniy asoslari tushunchasi to'g'risida ham shunday deyish kerak. Diniy qarashlar, hodisalar, g'oyalar, diniy madaniyat, ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot obyekтини tashkil qilishi mumkin, Lekin uning predmetini, metodologik asosini tashkil qila olmaydi. Diniy tafakkur ilmiy jihatdan tasdiqlash yoki inkor qilish mumkin bo'lmagan "haqiqatlar"ga qattiq ishonishga, asotiriy tafakkurga, sofistlik ruhida mantiqiy isbotlarga asoslanadi. Shu sababdan birorta ijtimoiy-gumanitar fanning diniy asosi bo'lmaydi.

Faqat ayrim ilmiy tadqiqotlarning oqibatlari va natijalarini baholashda, ularga xolis munosabatda bo'lishda insondan va jamiyatdan ma'lum bir axloqiy pozitsiyani egallash talab qilinadi. Bu bilvosita ayrim jihatlari bilan diniy tus olishi mumkin. Masalan, kulonlashtirish, ayniqsa insonni kulonlashtirish muammosi ana shunday axloqiy muammoni tug'diradi. Ammo ilmiy tadqiqotlarning o'zi bevosita diniy asoslarga tayanmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyat hayotida yuz bergan yoki badiiy adabiyotda, san'atda aks etgan diniy voqealar, g'oyalarni tahlil qilishda tadqiqotchi din borasida yetalicha

bilimga ega bo'lishi kerak. Shunda u chuqur va to'g'ri xulosalar qiladi. Ammo, bu fanning o'zi diniy asoslarga ega degani emas. Bu yerda gap tadqiqot obyektining diniy mazmuni haqida ketyapti va uning barcha nozik jihatlarini payqash uchun tadqiqotchi, yuqorida aytilganidek, tegishli bilimga ega bo'lishi kerak.

Dasturni tuzuvchilar, nazarimizda, ijtimoiy-gumanitar fanlarning obyekti va predmeti hamda metodologiyasi o'rtasidagi farqni aniqlay olmayaptilar. Savollarning dasturdagi tartibda qo'yilishi va yoritilishi talabalarni chalg'itadi hamda noto'g'ri xulosalarga kelishiga sabab bo'ladi.

To'g'ri ma'naviyat ijtimoiy-gumanitar fanlar orasidan mustaqillik yillarida jamiyat va inson ma'naviy hayotini o'rganuvchi alohida yangi fan sifatida shakllana boshladi. Fan yanada takomillashib va rivojlanib borishi uchun vaqt va tinimsiz izlanishlarni talab qiladi.

Bizning asosiy maqsadimiz ham ma'naviyat va unga oid fanlar darsliklari va o'quv dasturlaridan kamchiliklar topish yoki ularni tanqid qilish emas, balki mana shu kamchiliklarni bartaraf etish, fanni yanada yuksalishi, zamonaviy talablarga javob berishi uchun tinimsiz ijodiy va ilmiy izlanishlar natijasida o'z hissamizni qo'shishdir. Chunki ma'naviyat to'g'risidagi aniq va mukammal tasavvurlargina Vatanimiz va xalqimiz farovonligini oshirish, tinchligini mustahkamlash va yoshlarimiz ma'naviy dunyosini, ong-shuurini, tafakkurini, insoniylikka yo'g'irilgan e'tiqodini, vijdonini uyg'otish, bilimini, dunyoqarashini yanada yuksaltirishda ma'naviy omillardan samarali foydalanish imkonini beradi.

II bob bo'yicha xulosa

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risida ”gi Qonun va Davlat ta’lim standartlari asosida ma’nan yetuk, jismonan sog’lom, vatanparvar avlodni tarbiyalash vazifalaridan kelib chiqib, ta’limning barcha bosqichlari va bo’g’inlarida ma’naviyatga oid predmetlar o’qitilmoqda.

2. Umumta’lim maktablarining 5 va 6-sinflarida o’qitilayotgan “Vatan tuyg’usi” va 7, 8 va 9-sinflari uchun mo’ljallangan “Milliy istiqlool g’oyasi va ma’naviyat asoslari” darsliklari Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari asosida yanada takomillashtirilgan. Ammo darsliklarda berilgan ayrim mavzular va ulardagi tushunchalarning yoritilishi murakkab, maktab o’quvchisiga tushunarsiz va chalkash. Bundan tashqari darsliklarda ba’zan juda ham qo’pol xatolar uchraydi.

3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’rganiladigan ma’naviyatga oid predmetlar darsliklari va o’quv rejalarida ko’tarilgan masalalarga bir tomonlama yondashilgan holatlar mavjud. Ma’naviyat tarixini yoritishda faqat yaxshi jixatlariga to’xtalib o’tilgan. Xalqimiz boshidan kechirgan parokandaliklar, ma’naviy tanazzul, ularni keltirib chiqargan sabablar yoritilmay ketilgan. Mavzularni berilishida esa dastur tuzuvchilar tomonidan tizimlilikka yetarlicha e’tibor berilmagan.

4. Oliy ta’limda o’rganiladigan ma’naviyatga oid predmetlarning fan dasturlarida uni tuzuvchilar tomonidan fan predmeti va obykti chalkashtirilgan. Natijada metodologik jihatdan xatolarga yo’l qo’yilgan. Dasturlarda eklektik, ya’ni mexanistik tarzda diniy va dunyoviy yondashuvlar chalkashtirilgan va qorishtirib yuborilgan. Metodologik xatolardan yana biri ma’naviyatga o’ta bir tomonlama yondoshilganligidir. Unga faqat ma’naviy qadriyatlar, madaniy meros sifatida qaralgan. Ma’naviyat insonning ongi, yaratuvchilik jarayoni, ya’ni ideal hodisa sifatida ko’rilmagan. Hattoki, madaniy meros haqida gap ketganda ham ilm-fan mutlaqo chetda qolgan, go’yoki uning ma’naviy merosga aloqasi yo’qdek.

5. Oliy o'quv yutrlarining mutaxassislik yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan ma'naviyatga oid fanlarning dasturidagi mavzular tizimlilik va vorisiylik asosida tuzilmagan. Bundan tashqari, ma'naviyatga oid ma'lum bir predmetning fan dasturidagi masalalar o'zgarishsiz, aynan o'z holida boshqa predmet fan dasturida takrorlanib kelgan. Bunday kamchilik va xatolarning uchrashi "Ma'naviyat asoslari" fanining shakllanishi, yanada takomillashishi va yuksalishida hamda o'qitish va o'rganish jarayonida qator muammolarni yuzaga chiqarishi barobarida fanning obro'yiga ham putur yetkazadi.

III-BOB. MA'NAVIYAT MASALALARINI O'RGANISHDA PREDMETLARARO BOG'LIQLIKNI TA'MINLASH ZARURLIGI

3.1. O'rta va umumiy ta'lim tizimida ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar)aro bog'liqlik

Har bir yangi shakllangan fanda ma'lum bir vaqt va tinimsiz izlanishlar natijasida tizim yuzaga keladi. Fanni bosqichma bosqich o'rganish uchun oddiydan murakkabga qarab turkumlashtiriladi. Fanni o'qitishga mo'ljallangan darslik va o'quv dasturlari ham tizimlilik tamoyili asosida yaratiladi. Masalan, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fan darsligi va unda beriladigan axborot (bilim) o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda har bir sinf (bosqich) uchun alohida mo'ljallanadi. Darslik yozish jarayonida uzviylik, vorisiylik, davomiylik va bog'liqlik tamoyillariga asoslanish lozim. Quyi sinfda o'qib o'rganilgan bilimni yuqori sinflarda ham aynan takrorlanib o'rganilmaydi, balki oldingi olingan axborot asosida to'ldirib, boyitib, chuqurlashtirib va kengaytirib boriladi.

Ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar), ularning darslik va o'quv rejalari to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Masalan, umumta'lim maktablarining 5 va 6-sinfida o'qitiladigan “Vatan tuyg'usi” darsliklarida⁹⁰ mavzular o'quvchining yosh xususiyati va qiziqishidan kelib chiqib, tizimlashtirilgan holda berilgan. 5-sinflar uchun mo'ljallangan “Vatan tuyg'usi” o'quv qo'llanmasida quyidagi mavzular belgilangan: *Birinchi bob* – **Ona yurtim – oltin beshigim:** “Muqaddas Vatan”, “Vatanni anglash”, “Vatan tuyg'usi”, “Oila – Vatan timsoli”, “Vatanga muhabbat”; *ikkinchi bob* – **Jahon ichra yagona diyor:** “O'zbekiston deya atalur”, “O'zbekiston xalqi”, “O'zbekiston davlati va Prezidenti”, “Mustaqilik bu avvalo huquqdir”, “Vatanimiz timsollari”.

6-sinf “Vatan tuyg'usi” o'quv qo'llanmasining birinchi – **“Vatan ozodligi – oliy saodat”** bobiga “Eng ulug', eng aziz ayyom”, “Vatanimizning bosh

⁹⁰ Sultonov X. va Qarshiboyev M. “Vatan tuyg'usi”: Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi / Mas'ul muharrir A.Erkaev. – 4-nashri. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.

Sultonov X. va Qarshiboyev M. Vatan tuyg'usi: umumta'lim maktablarining 6-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi. – To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.

maydoni”, “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson”, “Buyuk qadamjolar”, “O’zbekiston Milliy bog’i”, “Tarixiy xotira”, “Qadimgi Registon” mavzulari kiritilgan. **“Jahon mardni tan oladi”** nomli ikkinchi bobiga esa quyidagi mavzular kiritilgan: “Ibratli fazilatlar”, “O’tda yonmaydigan meros”, “Milliy davlatchiligimiz”, “O’zligimiz timsoli”, “Biz – O’zbekiston fuqarosimiz”, “Vatanparvarlik”, “Vatanni ulug’lash”, “Jismoniy va ma’naviy yetuklik”.

Ushbu mavzularni yoritishda mualliflar bolalarga qiziqarli va tushunarli misollardan atroflicha foydalangan. Ularni bolalarga tushuntirish, har xil voqealarni bayon qilishda imkon boricha o’quvchilarning lug’at boyligi va dunyoqarashiga mos so’zlar, iboralar qo’llanilgan. Yangi so’zlar ishlatilsa, ularning lug’aviy ma’nosi alohida berilgan. O’quv qo’llanmasida nisbatan katta hajmdagi materiallar kam sonli mavzularga (5-sinf o’quv qo’llanmasida 12 ta mavzu, 6-sinf o’quv qo’llanmasida 15 ta mavzu) bo’lib berilgan. Bu o’quvchilardan har bir mavzuni o’zlashtirishda ko’proq vaqt talab qiladi. Shu sababdan mavzular sonini va ushbu predmetga ajratilgan soatlar hajmini ozroq ko’paytirtish maqsadga muvofiqligi to’g’risida biz oldingi bobda aytgan edik.

7, 8 va 9-sinfda o’tiladigan “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” predmetlari, va ularda berilgan ayrim mavzular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni tahlil qilishdan avval mazkur darsliklarga kiritilgan mavzularni ham keltirib o’tish zarur.

7-sinfda o’qitiladigan “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”⁹¹ darsligida quyidagi mavzular berilgan: **I bob. Ma’naviyat – kuch-qudrat manbayi:** “Inson – ezgulik ijodkori”, “Ma’naviyat va uning ta’rifi”, “Fikr va g’oya”, “G’oyaning asosiy xususiyatlari va turlari”, “Jamiyat rivoji va bunyodkor g’oyalar”, “Ma’naviyatni anglash – insonni anglashdir” (*Amaliy mashg’ulot*); **II bob. G’oyaga qarshi g’oya, fikrga qarshi fikr:** “Zararli g’oyalar”, “Hushyorlik va ogohlik”, “Milliy an’ana va qadriyatlar”, “Tarixiy yodgorliklar” (*Amaliy mashg’ulot*); **III bob. Ma’naviyatga tahdid –**

⁹¹ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011.

o'zligimizga tahdid: “Ko'zga ko'rinmas xatarlar”, “Shaxs tarbiyasi”, “Jamiyatga xavf soladigan illatlar”, “Inson qalbiga yo'l”, “Tarixiy xotirani tiklashda san'atning ahamiyati”; **IV bob. Yuksak ma'naviy mezonlar:** “Insonparvarlik – xalqimizning ezgu fazilati”, “Ma'naviyatning shakllanishida oilaning o'rni”, “Axloq-odob – ma'naviyat negizi”.

8-sinfda “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” darsligida⁹² quyidagi mavzular o'rin olgan: **I bob. Milliy g'oya – ezgu orzu-intilishlar ifodasi:** “Bunyodkor xalq”, “Bizning milliy g'oyamiz”, “Yurt tinchligi”, “Vatan ravnaqi”, “Xalq farovonligi”, “Obodlik ko'ngildan boshlanadi” (*Amaliy mashg'ulot*); **II bob. Milliy g'oya va ma'naviy hayot uyg'unligi:** “Komil inson”, “Ijtimoiy hamkorlik”, “Millatlararo hamjihatlik”, “Dinlararo bag'rikenglik”; **III bob. Ma'naviyatning muhim shartlari:** “Jamoat tuyg'usi”, “Insonni anglash”, “Qonun ustuvorligi”, “Internetdan foydalanish madaniyati” (*Amaliy mashg'ulot*); **IV bob. Ma'naviyat – jamiyat va millat ravnaqining bosh omili:** “Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi”, “Do'stlik – yuksak ma'naviy tushuncha”, “Ekologik madaniyat”, “Bizga tanish va notanish tabiat” (*Amaliy mashg'ulot*), “Vaqtni qadrlash – ma'naviyat mezon”, “Navro'z – eng qadimiy, asl milliy bayram”, “Xotira – ulug' qadriyat”.

9-sinf “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” darsligida⁹³ esa quyidagi mavzular berilgan: **I bob. Mustaqillik va milliy g'oya:** “Eng ulug' maqsad”, “Milliy g'oya va taraqqiyot”, “Dunyoning mafkuraviy manzarasi”, “Mafkuraviy poligon”; **II bob. Milliy g'oya va barkamol avlod:** “G'oyaviy bo'shliq”, “Mafkuraviy immunitet”, “Ona tili – millat ruhi”, “Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi”, “Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning ahamiyati”; **III bob. Ma'naviyatning mustahkam tayanchlari:** “Ma'naviyat qo'rg'oni”, “Milliy qadriyatlar maskani”, “Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi”,

⁹²Qo'chqorov R., Nishonova S., Musurmonova O., Qarshiboyev M. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 8-sinf, T.: “Ma'naviyat”, 2011.

⁹³ Musurmonova O., Qarshiboyev M., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Darslik, 9-sinf, T.: “Ma'naviyat”, 2011.

“Ma’naviyatga tahdid - o’zligimizga tahdid”; **IV bob. Eng buyuk jasorat:** “Ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi”, “Halol mehnat – ma’naviy yuksalish garovi”, “Ma’naviy jasorat”.

Mazkur darsliklar o’rtasida davomiylik mavjud. Ularni taqqoslaganimizda shunga amin bo’ldikki, quyi sinfda o’rganilgan materiallar va bilimlar yanada to’ldirilgan, chuqurlashtirilgan va har tomonlama rivojlantirilgan.

Masalan, 7-sinf “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” darsligida “Fikr va g’oya”, “G’oyaning asosiy xususiyatlari va turlari” mavzulari berilgan. Bu mavzularda avvalo “fikr” “g’oya” va “milliy g’oya” tushunchalari, g’oyaning asosiy xususiyatlari va turlari yoritilgan. 8-sinf darsligida esa “Bizning milliy g’oyamiz”⁹⁴ mavzusi orqali masala mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borilgan. Mavzuda milliy g’oyamizning mohiyati, uning ijodkori aslida kim ekanligi, nimaning natijasida shakllanishi va bunda boy tariximiz qanday ahamiyatga ega bo’lgani, milliy g’oyamizning asosini tashkil etgan buyuk maqsadlar, undagi tushuncha va tamoyillar kimning asari asosida shakllangan va qaysi risolada o’z aksini toganligi kabi masalalar yoritilgan. Darslikda milliy g’oyamiz tizimida muhim o’rin tutgan g’oyalar – yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik va dinlararo bag’rikenglik tamoyillarining har biri alohida mavzu sifatida yoritib berilgan.

7-sinf darsligining ikkinchi – “G’oyaga qarshi g’oya, fikrga qarshi fikr” bobining ikkinchi mavzusi “Hushyorlik va ogohlik”⁹⁵ deb nomlanadi. Unda “Globallashuv”, “Ommaviy madaniyat”, axborot xurujlari va ma’naviy tahdidlar to’g’risida fikr yuritilgan. Mana shu masalalar yuqori – 9-sinf “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” darsligida: “Dunyonong mafkuraviy

⁹⁴ Qo’chqorov R., Nishonova S., Musurmonova O., Qarshiboyev M. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 8-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 8-b.

⁹⁵ Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 7-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 42-b.

manzarasi”⁹⁶, “Ma’furaviy poligon”⁹⁷, “G’oyaviy bo’shliq”⁹⁸, “Ma’furaviy immunitet”⁹⁹ va “Ma’naviyatga tahdid – o’zligimizga tahdid”¹⁰⁰ kabi mavzularda alohida to’xtalib, kengroq yoritib berilgan. Bu bilan o’quvchilarning avval olgan bilimlarini, bir tomondan, mustahkamlanadi, ikkinchi tomondan esa – yanada boyitiladi, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, o’quv jarayonida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzviylikni ta’minlagan, ikkinchidan, o’qitish va bilish jarayoni uchun eng muhim ilmiy metodik va pedagogik-psixologik tamoyil – oddiylikdan murakkablikka qarab tadrijiy o’sib, teranlashib borgan. Bu ularning yana bir yutug’idir. Bu yutuqlarga erishishda darsliklar mualliflarining yagona ilmiy metodologik asosga rioya qilinganligi yordam bergan. Metodologik asos bo’lib esa Islom Karimovning ma’naviyat haqida yozgan asarlari va bildirgan fikrlari xizmat qilgan. Prezidentimiz fikrlari va g’oyalaridan tayanch va o’zak tushunchalar sifatida foydalingan. Mavzular ularning mazmun mohiyatini ochib berish maqsadini ham ko’zlab yoritilgan. Ulardan eng muhimlari alohida ajratib ko’rsatilgan.

Maktab darsliklarida chalg’ish yo’q, mantiqiylik, metodologik izchillik bor. Bundan tashqari, mavzularni yoritishda diniylikdan dunyoviylikka, dunyoviylikdan diniylikka o’tib qorishtirib yuborilmagan. Lekin, mazkur darsliklar ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Bu haqida oldingi bobda aytilgan edi. Predmetlararo bog’liqlik va davomiylik, oddiylikdan murakkablikka, mavhumlikdan konkretlikka qarab rivojlanish borasida talablarga javob beradi.

⁹⁶ Musurmonova O., Qarshiboyev M., Qo’chqorov R. Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari. Darslik, 9-sinf, T.: “Ma’naviyat”, 2011. 14-b.

⁹⁷ O’sha manbaa, 21-b.

⁹⁸ O’sha manbaa, 26-b.

⁹⁹ O’sha manbaa, 32-b.

¹⁰⁰ O’sha manbaa, 87-b

3.2. Oliy o'quv yurtlarining mutaxassislik yo'nalishlarida o'qitiladigan ma'naviyatga oid predmetlararo bog'liqlik

Oliy o'quv yurtlarining mutaxassislik yo'nalishlarida o'qitiladigan ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar) o'rtasidagi bog'liqlikni va ularning fan dasturlarini tahlil qiladigan bo'lsak, umuta'lim maktablarinikidan farqli, bir qancha kamchiliklar kuzatiladi.

Bakalavr bosqichining "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida o'qitiladigan "Ma'naviyatshunoslik" fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil 14-martdagi 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda BD5111600-308 raqami bilan ro'yxatga olingan. "Ma'naviyatshunoslik" fan dasturi f.f.d prof. M.S.Imomnazarov, t.f.n prof. M.Lapasov va f.f.n dots. M.A.Sobirovalar tomonidan tuzilgan. Magistratura bosqichining "Ma'naviyat asoslari" mutaxassisligida o'qitiladigan "Ma'naviyatning ilmiy asoslari" fan dasturi esa O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-noyabrdagi 467-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda MD5A111601-2.02 raqami bilan ro'yxatga olingan. Bu dasrur ham f.f.d prof. M.S.Imomnazarov va t.f.n prof. M.Lapasovlar tomonidan tuzilgan. Bu ikki fan dasturi mazmun jihatdan birxil, aynan takrorlanib kelgan. Dasturlar o'rtasidagi takrorlanish misollari quyidagi jadvalda aks etgan:

№	“Ma’naviyatshunoslik” fan dasturi (bakalavr)	“Ma’naviyatning ilmiy asoslari” fan dasturi (magistratura)
1	O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida milliy ma'naviyta nazariyasiga oid masalalarning kun tartibiga qo'yilishi va Prezidentning bu sohaga amaliy tashabbuslari.I.A.Karimovning mustaqil O'zbekistonni siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojini ta'minlash bo'yicha yaratgan tadqiqotlari va ma'ruzalari bugungi kun umubashariy muammolariga munosabat va Borliq haqiqatiga yangicha yondashuvlarning namoyon bo'lishi. Prezident asarlarida va milliy ma'naviyatimiz an'analarida “ko'p qutbli	O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida milliy ma'naviyta nazariyasiga oid masalalarning kun tartibiga qo'yilishi va Prezidentning bu sohaga amaliy tashabbuslari.I.A.Karimovning mustaqil O'zbekistonni siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojini ta'minlash bo'yicha yaratgan tadqiqotlari va ma'ruzalari bugungi kun umubashariy muammolariga munosabat va Borliq haqiqatiga yangicha yondashuvlarning namoyon bo'lishi. Prezident asarlarida va milliy ma'naviyatimiz an'analarida “ko'p qutbli

	dunyo” nazariyasi va uning bugungi kunimiz uchun ahamiyati. “Inson olam mehvari” g’oyasining Prezident asarlarida ifodalanishi va buning sabablari. Inson va jamiyat haytida uch yetakchi soha – siyosat, iqtisod va ma’naviyatning o’zaro uyg’unligini ta’minlash masalasi. Mustaqil O’zbekiston davlatining ushbu muammoga alohida er’ribori. (I bo’lim, 2-mavzu)	dunyo” nazariyasi va uning bugungi kunimiz uchun ahamiyati. “Inson olam mehvari” g’oyasining Prezident asarlarida va milliy ma’naviyatimiz an’alarida ifodalanishi. Inson va jamiyat haytida uch yetakchi soha – siyosat, iqtisod va ma’naviyatning o’zaro uyg’unligini ta’minlash masalasi. Mustaqil O’zbekiston davlatining ushbu muammoga alohida er’ribori. (2-mavzu)
2	Ijtimoiy fanlar metodologiyasi xususida. Bugungi kun ijtimoiy fanlar sohasidagi muammolar va ularni hal qilish yo’llari. (I bo’lim, 3-mavzu)	Ijtimoiy fanlar metodologiyasi xususida. Bugungi kun ijtimoiy fanlar sohasidagi muammolar va ularni hal qilish yo’llari. (2-mavzu)
3	Ijtimoiy fanlarning tabiiy (tabiatga oid) va aniq (matematik) fanlar bilan o’zaro umumiy va farqli tomonlari. Ijtimoiy fanlarning shakllanishida naqliy va aqliy bilimlar nisbati. (I bo’lim, 3-mavzu)	Ijtimoiy fanlarning shakllanishida naqliy va aqliy bilimlar nisbati. Ijtimoiy fanlarning tabiiy (tabiatga oid) va aniq (matematik) fanlar bilan o’zaro umumiy va farqli tomonlari. (5-mavzu)
4	Shaxs ma’naviyati ma’naviyat nazariyasining o’zak tushunchasi sifatida. Shaxs ma’naviyatining asosiy qirralari. Millat ma’naviyati va milliy ma’naviyat. Milliy ma’naviyatning shakllanishida o’zga millat vakillarining ishtiroki. Milliy ma’naviyat va mintaqa madaniyati: o’zaro nisbatlar. (II bo’lim, 2-mavzu)	Shaxs ma’naviyati ma’naviyat nazariyasining o’zak tushunchasi sifatida. Shaxs ma’naviyatining asosiy qirralari. Millat ma’naviyati va milliy ma’naviyat. Milliy ma’naviyatning shakllanishida o’zga millat vakillarining ishtiroki. Milliy ma’naviyat va mintaqa madaniyati: o’zaro nisbatlar. (3-mavzu)
5	Ma’naviyat va ruhiyat. Inson tabiati va shaxs ma’naviyati. (II bo’lim, 4-mavzu)	Inson tabiati va shaxs ma’naviyati. Ma’naviyat va ruhiyat. (12-mavzu)
6	Ma’naviyat va madaniyat nisbati. “Moddiy” va “ma’naviy” madaniyat masalasi. Madaniyat shaxs ma’naviyatining moddiy voqelikdagi izlari sifatida. Jahon madaniyati va mintaqa madaniyati. (II bo’lim, 4-mavzu)	Ma’naviyat va madaniyat nisbati. “Moddiy” va “ma’naviy” madaniyat masalasi. Madaniyat shaxs ma’naviyatining moddiy voqelikdagi izlari sifatida. Jahon madaniyati va mintaqa madaniyati. (9-mavzu)
7	Dinning zohiriy va botiniy jihatlar. Imon-e’tiqod ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Din va ilm-ibrat. Taqlidiy va tahliliy imon tushunchalari. Din siyosatmi ma’naviyatmi? Shariat, islom huquqi va islom ma’naviyati. Aqidaparastlikning gnoseologik, siyosiy-ijtimoiy va tarixiy ildizlari. (II bo’lim, 5-mavzu)	Dinning zohiriy va botiniy jihatlar. Imon-e’tiqod ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Din va ilm-ibrat. Taqlidiy va tahliliy imon tushunchalari. Din siyosatmi ma’naviyatmi? Shariat, islom huquqi va islom ma’naviyati. Aqidaparastlikning gnoseologik, siyosiy-ijtimoiy va tarixiy ildizlari. (4-mavzu)
8	Axloqiy fazilatlar shaxs ma’naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Ijtimoiy hayot va axloq. Sotsial psixologiya, antropologiya, ma’naviyat nazariyasi va axloqshunoslik fanlarining o’zaro bog’liqlik jihatlar. (II bo’lim, 6-mavzu)	Axloqiy fazilatlar shaxs ma’naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Ijtimoiy hayot va axloq. Sotsial psixologiya, antropologiya, ma’naviyat nazariyasi va axloqshunoslik fanlarining o’zaro bog’liqlik jihatlar. (12-mavzu)
9	Ma’naviyat va nafosat. Shaxs ma’naviyati – inson botiniy go’zalligining asosi	Ma’naviyat va nafosat (alohida mavzu, nomi). Shaxs ma’naviyati – inson botiniy

	sifatida. Ma'naviyat va san'at. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari. (II bo'lim, 7-mavzu)	go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol – Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari. (10-mavzu)
10	Ma'naviyat va adabiyot. So'z san'atining shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma'naviyatining akslanishi. Adabiyot va mehr-ma'rifati. San'atning murakkab turlari va ularda so'z san'atining ishtiroki. Teatr – ibrat maktabi. (II bo'lim, 7-mavzu)	Ma'naviyat va adabiyot (alohida mavzu, nomi). So'z san'atining shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma'naviyatining akslanishi. Adabiyot va mehr-ma'rifati. San'atning murakkab turlari va ularda so'z san'atining ishtiroki. Teatr – ibrat maktabi. (11-mavzu)
11	Qadr va qadriyat. Insonning ongli mavjudot sifatidagi qudrati va ma'suliyati. Ma'naviyatda qadr muammosi va uning iqtisod va siyosatda akslanishi. "Qadr" tushunchasining siyosatdagi in'ikosi Mavqe va maqom. "Qadr" tushunchasining iqtisodda akslanishi. Qiymat va baho. Oliy ma'naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat – Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvbosqichlari (darajalari) sifatida. (IV bo'lim, 1-mavzu)	Ma'naviyatda qadr muammosi (alohida mavzu, nomi). Qadr va qadriyat. Insonning ongli mavjudot sifatidagi qudrati va ma'suliyati. "Qadr" tushunchasining iqtisod va siyosatda akslanishi. Mavqe va maqom, qiymat va baho nisbatlari. Bosh ma'naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat – Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvbosqichlari (darajalari) sifatida. (8-mavzu)
12	Adolat – ijtimoiy hayotda ma'naviyatning namoyon bo'lishi sifatida. Milliy ma'naviyatimizda xalq hokimiyatchiligiga munosabat. "Islomiy davlat" tushunchasi haqida. Sekulyarizm prinsipining ma'naviy mohiyati. Ijtimoiy hayotda ma'naviyat, iqtisod, siyosat yo'nalishlarining uyg'unligi adolatli jamiyatning asosiy belgisi sifatida. (IV bo'lim, 5-mavzu)	Adolat – ijtimoiy hayotda ma'naviyatning namoyon bo'lishi sifatida. Islom dinida xalq hokimiyatchiligiga munosabat. "Islomiy davlat" tushunchasi haqida. Sekulyarizm prinsipining ma'naviy mohiyati. Ijtimoiy hayotda ma'naviyat, iqtisod, siyosat yo'nalishlarining uyg'unligi adolatli jamiyatning asosiy belgisi sifatida. (7-mavzu)
13	Tavhidiy tafakkur va uning mohiyati. Tafakkur turlari va ma'naviyat: a) mantiqiy tafakkur; b) san'at, adabiyot va ma'naviyat; d) xalq ijodi va ma'naviyat; e) marosimlar va ma'naviyat. Ma'naviyat, falsafa va ilm. Ma'naviyat va falsafada Borliq haqiqatiga munosabat. (IV bo'lim, 8-mavzu)	Ma'naviyat va falsafada Borliq haqiqatiga munosabat. Ma'naviyat, falsafa va ilmda mantiqiy tafakkurning o'rni. Falsafiy tafakkur va tavhidiy tafakkur. (6-mavzu)
14	Ziyoliylarimiz ongida eski mafkura asoratlari va olimning ilmi oldidagi mas'uliyati masalasi. (IV bo'lim, 10-mavzu)	Ziyoliylarimiz ongida eski mafkura asoratlari va olimning ilmi oldidagi mas'uliyati masalasi. (14-mavzu)
15	Milliy ma'naviyat va millat tarbiyasi. Millat tarbiyasi kimning qo'lida? Tarbiyachilarni tarbiya qilish masalasi. Ma'rifat yo'llari va milliy tarbiya nazariyasi. (IV bo'lim, 10-mavzu)	Ma'naviyat va millat tarbiyasi (alohida mavzu, nomi). Ma'rifat yo'llari va milliy tarbiya nazariyasi Millat tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi? Tarbiyachilarni tarbiya qilish masalasi. (IV bo'lim, 10-mavzu)

Mualliflar mazkur dasturni tuzish mobaynida fanlar o'rtasida ham, fan dasturlaridagi mavzular o'rtasida ham uzviylik, bog'liqlik, vorisiylik va davomiylik tamoyillariga rioya etmaganlar.

Xuddi shunday holatni boshqa - ma'naviyatga oid bo'lgan fan dasturlarida ham kuzatamiz. Yuqorida tahlil qilingan "Ma'naviyatshunoslik" fan dasturidagi **"Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari"** nomli III bo'limida berilgan mavzular va ulardagi masalalar hech qanday o'zgarishsiz **"Ma'naviyatning rivojlanish tarixi"** fan dasturida ham aks etgan. Mazkur dastur alohida fan sifatida 6 va 7-semestrlarda o'rganiladi. Ajablanarlisi shundaki, quyi bosqichda, ma'lum bir fan tarkibida o'rganilgan masalalar yuqori bosqichda ham aynan o'z holicha o'rganilayotir.

Darslik yoki o'quv dasturda o'rganaliyotgan masala keyingi darslik yoki o'quv dasturda rivojlantirilmagan, o'zgarishsiz aynan avvalgi shaklda o'zi berilishi mumkin emas. Bunday holatda fan bir joyda to'xtalib qolad, yuksalish bo'lmaydi, fanning obro'yiga putur yetadi, o'quvchi yoki talabaning bilimi rivojlanmaydi va dunyoqarashi o'smaydi natijada bir xillikda qotib qoladi.

"Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" fanining o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008-yil 23-avgustdagi 263-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda BD-51415-308 raqami bilan ro'yxatga olingan. Ushbu fan oliy o'quv yurtlarining mutaxassislik yo'nalishlarida tajriba-sinov tarzida o'qitilishi tavsiya etilgan.

"Ma'naviyatshunoslik" va "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" fanlarining o'quv dasturi o'rtasidagi takrorlanishlardan tashqari ularda, birinchidan, mantiqiy izchillik, davomiylik va uzviylik ta'minlanmagan, oddiylikdan murakkablikka qarab tadrijiy o'sib, teranlashib bormagan, ikkinchidan, diniy va dunyoviy nuqtai nazarlar, ba'zan din tarixi va adabiyotshunoslik mavzu va yondashishlari qorishuvi kabi eklektik xatolarga yo'l qo'yilgan.

"Ma'naviyat rivojlanish tarixi" fani 2013-yildan boshlab 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining o'quv rejasiga

kiritilmagan bo'lsada, ammo mazkur vaqtga qadar mutaxassislik yo'nalishlarda o'rganildi.

“Ma'naviyat rivojlanish tarixi” fani o'quv dasturida milliy ma'naviyatning rivojlanish tamoyillari, tadrijiy bosqichlari, qadriyatlari va kelib chiqish manbalari yoritilishiga qaratilgan bo'lsada, dasturda ayrim chalkashliklar uchraydi. Masalan, dasturda milliy ma'naviyatimiz tarixiy bosqichlari quyidagicha ajratib ko'rsatilgan: “Milliy ma'naviyatimiz takomilining asosiy davrlari. Ibtidoiy jamoa davrida ilk ma'naviyat unsurlarining shakllanishi”, “Ilk shahar ma'naviyati va “Avesto” kitobi”, “Turkiy toshbitiklar ma'naviyati”, “Tavhid e'tiqodi va Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati”, “islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili. Sunna bosqichi”, “Islom ma'rifatchiligi va ratsionalistik tafakkur rivoji”, “Tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va irfon”, “Milliy ma'naviyatimiz rivojida “Ma'joz tariqi” bosqichi”, “Alisher Navoiy ma'naviy olami va yangi davr o'zbek millati ma'naviy qiyofasining shakllanishi”, “Islom mintaqa madaniyatining Yevropaga ta'siri. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri ma'naviyati”, “Chor Rossiyasi hukmdorligi va bolshevizm qatag'onlari sharoitida milliy ma'naviyatimiz ahvoli. Milliy Uyg'onish va Jadidchilik ma'naviyati” va “Mustaqillik davrida milliy ma'naviyatimizning mohiyatan qayta tiklanish jarayoni”.

Milliy ma'naviy taraqqiyotni davrlashtirishda mualliflar tomonidan yagona ilmiy metodologik asosga rioya qilinmagan. Milliy ma'naviyatimizning tadrijiy bosqichlari ilmiylik (dunyoviylik) emas, balki tosh bitiklar ma'naviyati, Alisher Navoiy ma'naviy olami, tavhid e'tiqodi, tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va irfon, sunna bosqichi, yoki “majoz tariqi” bosqichi ayrim dunyoviy unsurlar hamda diniy e'tiqodlar evolyutsiyasi va almashinuviga qarab, diniy rivojlanish va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan davrlashtirilgan. Bunday eklektik yondashuv doirasida ham mantiqiy izchillikka rioya etilmagan.

Umuman kishilik jamiyati taraqqiyotini bosqichlarga ajratishda quyidagicha yondashuvlar mavjud:

1. *Sivilizatsion yondashuv*: ibtidoiy jamiyat, bronza, temir asri, qadimgi dunyo va antik davr sivilizatsiyalari, o'rta asrlar, yangi davr va hokazolar.

2. *Ijtimoiy formatsion yoki ijtimoiy tuzumlar bo'yicha*: ibtidoiy tuzum, quldorlik, feodalizm, kapitalizm.

3. *Ishlab chiqarishining yetakchi sohasiga qarab davrlashtirish*: ibtidoiy jamiyat, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat.

4. *diniy e'tiqodlar evolutsiyasi va almashinuviga qarab*:

a) ibtidoiy-diniy e'tiqod (animizm, totemizm, feteshizm, magiya);

b) politeistik (ko'p xudochilik), yakka xudochilik.

Dasturda, milliy ma'naviyatimizning tadrijiy bosqichlarini ajratishda yuqoridagi sanab o'tilgan yondashuvlar qorishtirib yuborilgan, tizimlilikka e'tibor berilmagan.

A. Erkaev o'zining "Ma'naviyat va taraqqiyot" kitobida o'zbek xalqi ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishi tarixiy bosqichlarini quyidagicha ko'rsatgan:

1. Eng qadimgi (arxaik) davr va ilk zardushtiylik bosqichi.

2. Islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy plyuralizm bosqichi.

3. Islom tamaddunining gullab-yashnashi va temuriylar davri qayta uyg'onish bosqichi.

4. An'anaviylikning qaror topishi va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tanazzul bosqichi.

5. Mustamlakachilik davri ma'naviyati.

6. Istiqlol davri ma'naviyati¹⁰¹.

Milliy ma'naviyatimiz rivojlanishini o'rganayotganda ushbu yondashuv mantiqiy asosga ega. Oliy o'quv yurtlari darsliklari va o'quv dasturlarida uzviylik va davomiylik, vorisiylik buzulganiga, darsliklar va dasturlarda ma'naviyatni o'rganishga sistemali va ilmiy metodologik jihatdan to'g'ri yondashilmaganiga qarab ko'plab misollar keltirish mumkin.

¹⁰¹ Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2009. 78-b.

II bob bo'yicha xulosa.

1. Ma'lum bir fanni bosqichma bosqich o'rganish uchun oddiylikdan murakkablikka qarab turkumlashtiriladi, darslik va o'quv dasturlari esa ham tizimlilik tamoyili asosida yaratiladi va darslik yozish jarayonida uzviylik, vorisiylik, davomiylik va bog'liqlik tamoyillariga asoslaniladi. Umuman olganda quyi sinfda o'qib o'rganilgan bilimni yuqori sinflarda ham aynan takrorlanib o'rganilmaydi, balki oldingi olingan axborot asosida to'ldirib, boyitib va kengaytirib boriladi. Ma'naviyat masalalarini o'rganishga keladigan bo'lsak, predmetlararo dialektik aloqadorlik bir muncha zaif. Faqat umumta'lim maktablarida o'qtilayotgan ma'naviyatga oid fanlar darsliklari bu borada o'zini oqlaydi.

2. Maktab darsliklari o'rtasida davomiylik mavjud. Quyi sinfda berilgan materiallar va g'oyalar yuqori sinflarda yanada to'ldirilgan, chuqurlashtirilgan va har tomonlama rivojlantirilgan. Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, o'quv jarayonida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzviylikni ta'minlagan, ikkinchidan, o'qitish va bilish jarayoni uchun eng muhim ilmiy metodik va pedagogik psixologik tamoyil – oddiylikdan murakkablikka qarab tadrijiy o'sib, teranlashib borgan.

3. Oliy o'quv yutrlarining mutaxassislik yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar) o'rtasidagi bog'liqlikda bir qancha kamchiliklar kuzatiladi. dasturidagi mavzular tizimlilik va vorisiylik asosida tuzilmagan. Bundan tashqari, ma'naviyatga oid ma'lum bir predmetning fan dasturidagi masalalar o'zgarishsiz, aynan o'z holida boshqa predmet fan dasturida takrorlanib kelgan. Bunday kamchilik va xatolarning uchrashi "Ma'naviyat asoslari" fanining shakllanishi, yanada takomillashishi va yuksalishida hamda o'qitish va o'rganish jarayonida qator muammolarni yuzaga chiqarishi barobarida fanning obro'yiga ham putur yetkazadi.

XULOSA

1. Taraqqiyot va kelajag, barkamol avlodni tarbiyalash, turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan yoshlarni himoya qilish, jahon hamjamiyatiga teng huquqli integratsiya bo'lish yoshlarning ijtimoiy mo'ljallariga, qadriyatlar tizimiga bog'liq. Yosh avlodning ma'naviy qarashlarini shakllantirish uchun bolalar milliy o'zlikni anglatish, ular qalbida yuksak ma'naviy me'zonlarni, talablarni qaror toptirish, jamiyat ma'naviyatini yanada rivojlantirish zarur. Bu esa ma'naviatni alohida har tomonlama chuqur o'rganishni, uning yuksalish qonuniyatini yaxshi bilib olib, amaliyotda, tarbiyaviy ishlarda qo'llashni taqozo etadi.

1997-yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari" fani o'qitila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi – 1331-son Farmoyishi¹⁰² asosida xalqning, ayniqsa yosh avlodning ilg'or ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarga binoan yangi yaratilayotgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga "Ma'naviyat asoslari" va "Milliy istiqlol g'oyasi" predmetlari kiritildi va uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish joriy etildi.

2. Ma'naviyatga oid o'qitiladigan fanlar (predmetlar) bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar va yaratilgan darsliklar doimiy ravishda takomillashtirib borishga, amaliyotda va ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan yangiliklarni aks ettirishga, yo'l qo'yilgan ba'zi bir kamchiliklarni bartaraf etishga talab sezmoqda. Mavjud darsliklar, o'quv dasturlaridagi kamchiliklarni har xil guruhlarga bo'lish mumkin: faktik xatolarga yo'l qo'yilishi, o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi hisobga olmaslik, ba'zi mavzular matnlarining cho'zilib ketganligi kabi kamchiliklarga. Lekin ularda ancha jiddiy ilmiy-metodologik kamchiliklar ham bor.

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi PF – 1331-son Farmoyishi

3. Ta'lim tizimidagi ayrim nazariy va amaliy xatolar ma'naviyat tushunchasining yaxshi o'rganilmaganiga, ziddiyatli mazmunda qo'llanilganiga, uning tuzilmasi, tarkibiy qismlari yaxshi aniqlanmaganiga borib taqaladi. Shu sababdan avvalo ilmiy-falsafiy adabiyotlarda, jumladan, mumtoz adabiyotda ma'naviyat qanday talqin qilingani, lug'atlarda va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "ma'naviyat" tushunchasi tahlil etilishi, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni o'rganish lozim.

Mumtoz allomalar – Abu Nosir Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy asarlarida "ma'naviyat" va "ma'naviy" tushunchasi bilan bir qatorda "ruhoniyyat", "maoniy", "fozil", "axloqiy", "komillik" va "komil inson" tushunchalarini ham qo'llagan. "Ma'naviyat" tushunchasi mumtoz adabiyotda ko'proq diniy mazmunda ishlatilgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida esa "ma'naviylik" va "komillik" tushunchasi o'rniga "fozillik" tushunchasi qo'llanilgan va boshqa mutafakkirlardan farqli Forobiy mazkur tushunchani faqat dunyoviy mazmunda qo'llagan.

Turli ilmiy adabiyotlar va lug'atlardagi "ma'naviyat" tushunchasiga berilgan turli ta'riflar, aynan bugunbi kun olimlarimizning qarashlaridagi ziddiyatlar, ba'zi bir yoqlama fikrlar va bir-birini inkor etish kabilar ma'naviyat masalalarini o'qitishda, o'quv dastur va darsliklarni yaratishda ayrim chalkashliklarga sabab bo'lmoqda.

4. Darsliklarda avvalo "ma'naviyat" tushunchasining mohiyati, uning tuzilmasi va ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat ekanini yanada teranroq ochib berish zarur. Darsliklarda ko'proq ma'naviyatning alohida unsurlarini tushuntirishga e'tibor qaratilgan. Bu umumta'lim maktablarining 5-6-sinflar uchun o'zini oqlaydi. Lekin 7,8,9-sinflarda bolalar asta-sekin ma'naviyatni yaxlit tizim sifatida, unga axloq, ilm-fan, din, adabiyot, san'at, urf-odatlar, marosimlar, an'analar va boshqa qadriyatlar nisbatan alohida qismlarni tashkil etishni anglab olishlari zarur. Darsliklarda har holda ancha-muncha fikrlar bildirilgan, qiziqarli misollar asosida ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Lekin ular ma'naviyatning tuzilmasi ekanligi, o'zaro bir-biri bilan

bog'liqligi yaxshi tushuntirilmagan. Ma'naviyatning yo'nalishlari va namoyon bo'lish shakllari, rivojlanish qonuniyatlari haligacha darsliklarda aniq va o'quvchilarga tushunarli tarzda yoritilmagan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rganiladigan ma'naviyatga oid predmetlar darsliklari va o'quv rejalarida ko'tarilgan masalalarga bir tomonlama yondashilgan holatlar mavjud. Ma'naviyat tarixini yoritishda faqat yaxshi jixatlariga to'xtalib o'tilgan. Xalqimiz boshidan kechirgan parokandaliklar, ma'naviy tanazzul, ularni keltirib chiqargan sabablar yoritilmay ketilgan. Mavzularni berilishida esa dastur tuzuvchilar tomonidan tizimlilikka yetarlicha e'tibor berilmagan.

Oliy ta'limda o'rganiladigan ma'naviyatga oid predmetlarning fan dasturlarida fan predmeti va obykti chalkashtirilgan. Natijada metodologik jihatdan xatolarga yo'l qo'yilgan. Dasturlarda ba'zan eklektik, ya'ni mexanistik tarzda diniy va dunyoviy yondashuvlar chalkashtirilgan va qorishtirib yuborilgan holatlarni uchratamiz. Metodologik xatolardan yana biri ma'naviyatga o'ta bir tomonlama yondoshilganligidir. Unga faqat ma'naviy qadriyatlar, madaniy meros sifatida qaralgan. Ma'naviyat insonning ongi, yaratuvchilik jarayoni, ya'ni ideal hodisa sifatida ko'rilmagan.

5. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviyatga oid fanlar (predmetlar) o'rtasidagi bog'liqlikda bir qancha kamchiliklar kuzatiladi. Ma'naviyatga oid darsliklar va o'quv dasturlari o'rtasida vorisiylik va uzviylik biroz yetishmaydi. Predmetlar o'rtasida mazmun jihatdan takrorlanish, bir xillik mavjud. Oliy o'quv yutrlarining mutaxassislik yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida ham o'qitiladigan ma'naviyatga oid fanlarning dasturidagi mavzular tizimlilik va vorisiylik asosida tuzilmagan. Bundan tashqari, hozir ta'kidlab o'tganimizdek, ma'naviyatga oid ma'lum bir predmetning fan dasturidagi masalalar o'zgarishsiz, aynan o'z holida boshqa predmet fan dasturida takrorlanib kelgan. Shunga o'xshash kamchilik va xatolarning uchrashi "Ma'naviyat asoslari" fanining shakllanishi, yanada takomillashishi va yuksalishida hamda o'qitish va o'rganish jarayonida qator muammolarni yuzaga

chiqarishi barobarida fanning obro'yiga ham putur yetkazadi. O'quvchi bilimi rivojlanmaydi, dunyoqarash o'smaydi, bir xillikda qotib qoladi.

Taklif va tavsiyalar

1. Umumta'lim maktablarining 5 va 6-sinflarida o'qitiladigan "Vatan tuyg'usi" predmeti o'quv yili davomida 17 soat o'qitiladi. Ayni paytda maktabda o'quv soatlarini ko'paytirish juda qiyin, ortiqcha soatlarni faqat an'anaviy predmetlarning o'qitilish soatini optimallashtirish hisobiga ma'lum darajada topish mumkin. Shu yo'l bilan "Vatan tuyg'usi" fanining o'qitish soatlarini 20 soatga ko'paytirishni tavsiya qilamiz.

2. 7, 8, va 9-sinflarda o'qitiladigan **"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari"** predmetining nomini **"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"** deb, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun tuzilgan **"Milliy istiqlol g'oyasi"** o'quv qo'llanmasi nomini esa **"Milliy g'oya"** shaklida o'zgartirish kerak. Chunki Oliy o'quv yurtlarida o'rganilayotgan ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarni inobatga olmaganda va umuman ilmiy adabiyotlarda bugungi kunda **"milliy g'oya"** atamasi qo'llanilmoqda. Ilmiy tushunchalarni birxillashtirish fan va o'quv jarayoni uchun juda muhim. Bundan tashqari, milliy istiqlolga erishganimizga sal kam chorak asr bo'lmoqda. Endi biz uchun istiqlolga erishish va uni mustahkamlash emas, balki milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarish dolzarbroqdir. Ushbu jihatdan ham **"milliy istiqlol g'oyasi"** o'rniga **"milliy g'oya"** tushunchasi qo'llanilishi mantiqiyroqdir.

3. Predmetlararo bogliqlik va davomiylikni ta'minlash uchun darsliklar mualliflarini uchrashtirish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish zarur. Eng avvalo ta'limning turli bosqichlari uchun birgalikda ma'naviyat asoslari predmetlari bo'yicha dastur ishlab chiqish kerak. Birgalikda ishlab chiqilgan dasturda qaysi bosqichda nimalarni o'qitish va predmetlar o'rtasidagi bog'liqlik va davomiylikni kelishib olish mumkin. Bir-birini ishidan bexabar mualliflar guruhlar tuzgan dasturlar va yozgan darsliklar, o'quv qo'llanmalarida ba'zi mavzularning takrorlanishi, yoki darsliklarning o'rtasidagi uzulishlar bo'lishi va shunga o'xshash kamchiliklar kuzatilishi tabiiydir.

4. Oliy o'quv yurtlari uchun tuzilgan ma'naviyatga oid predmetlarning dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Eng avvalo bu ishga haqqoniy mutaxassislarni jalb qilish kerak. Tuzilgan o'quv dasturlarini tasdiqlashdan oldin, uni tegishli komissiyalarda va hatto jamoatchilik ishtirokida ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari orqali muhokamadan o'tkazish kerak. O'quv dasturlaridagi takrorlanishlar va paralellizmlardan qutilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO‘YXATI

I.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
2. “Talim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. -Toshkent: Adolat , 1998. - № 17. -B.3-16.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: Adolat, 1998. - № 18. -B.3-36.

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Maxkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya tarfiiboti va ma'naviy va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori. («Xalq so‘zi»gazetasi 2006 yil 26 avgust).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb–hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori(«xalq so‘zi»gazetasi 2012 yil 28 may).
3. “Yoshlar yili” Davlat dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2008 yil, 29 fevral. // Xalqso‘zi. 2008. -1 mart.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi PF – 1331-son Farmoyishi.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: “O‘zbekiston”, 1996.
2. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. 1-jild. T.: “O‘zbekiston”, 1996.

3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2–jild, T.: “O‘zbekiston”, 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash–davr talabi, 5–jild, T.: “O‘zbekiston”, 1996.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O‘zbekiston”, 1997.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. T.: “O‘zbekiston”, 1997.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: “O‘zbekiston”, 1996.
8. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. “Xalq so‘zi”, 1999-yil 3-fevral.
10. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O‘zbekiston”, 2000.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: “O‘zbekiston”, 2000.
12. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.: "O‘zbekiston", 2001.
13. Karimov I.A. O‘zbek xalki hyech kachon xech kimga karam bo‘lmaydi. T.: "O‘zbekiston", 2005.
14. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008.
15. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2012.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Asarlar, XV jildlik, XI jild, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. "Mahbub ul-qulub"dan. T.: "Fan". 1998.
3. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy Masnaviy. Birinchi jild, birinchi kitob. Toshkent. "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 5-b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri, T.: 2012.
5. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 1999.
6. Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. T.: "Ma'naviyat". 2002.
7. Erkaev A. Manaviyat va taraqqiyot. T.: "Ma'naviyat", 2009.
8. Komilov N. Tasavvuf. T.: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009. 133-b.
9. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent, 1996. 6-b.
10. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 33-b.
11. Otamuratov Sadulla, Otamuratov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, "O'AJBNT" Markazi, 2003. 177-b.
12. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.
13. Quronboyev Q. va Qo'chqorov V. Milliy g'oya va ma'naviy hayot. T.: "Ma'naviyat" 2014.
14. Umarov E. va Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2005.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Sultonov X., Qarshiboyev M. Vatan tuyg'usi. Umum ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi. – 4-nashri. – T.: "Ma'naviyat", 2011.

2. Sultonov X., Qarshiboyev M. Vatan tuyg'usi. Umum ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi. – to'ldirilgan va qayta ishlangan 6-nashri. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.
3. Qarshiboyev M., Nishonova S., Musurmonova O., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari: 7-sinf: Darsli.4-nashri. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.
4. Qo'chqorov R., Nishonova S., Musurmonova O., Qarshiboyev M. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. 8-sinf: Darslik. – 6- qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 88-bet.
5. Musurmonova O., Qarshiboyev M., Qo'chqorov R. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari: 9-sinf. O'quv qo'llanmasi. – Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri. – T.: “Ma'naviyat”, 2011.
6. Nazarov Q., Quronov M. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2009.
7. Nosirxo'jayev S., Lafasov M., A'zamxo'jaeva S. Ma'naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashri. – T.: “Turon-iqbol”, 2007.

Ilmiy, ommabop va publisistik lug'atlar

1. Farhangi zaboni tojik. 1-jild, Moskva. 1969. 665-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva, 1981. 1-jild, 454-455-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006. 2-jild, 565-566-b.
4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: ”Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. 114-b.
5. Falsafa qisqacha izohli lug'at. T.: ”Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2004. 199-b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-son, T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 540-bet.

7. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 333-b.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug'at). T.: Yangi asr avlodi. 2002;
9. Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalari. "Akademiya". 2007-yil;
10. Философский энциклопедический словарь. М.: 1983-yil, 337-bet.
11. Русско – арабский словарь. Москва. 1984. 545-546-б.
12. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. 1993.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Aziziddin Nasafiy. Komil inson; Maqsadi aqso, Zubdat ul-haqoyiq.
2. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1996-y. 10-b.
3. Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov. "Ma'naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti". Xo'jand, 1996;
4. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: "O'zbekiston", 1995.
5. Otamurodov S. va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma, T.: 2002.
6. Nazarov Q. Ma'naviyatshunoslikning dolzarb masalalari. "Muharrir", 2010;
7. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. T., "Ma'naviyat", 1999-y.
8. To'raev Sh. Ma'naviy tahdidlar: falsafiy tahlil. T.: "Muharrir", 2010;
9. Qo'chqorov V. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. T.: "Akademiya", 2008.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasi. T.: 2001;
11. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. T.: Yangi asr avlodi. 2001-yil;
12. Primov T. Milliy g'oya, yoshlar va ta'lim-tarbiyadagi yangiliklar. (I.A.Karimov asarlari asosida), T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.
13. Shayxova X. Ma'naviy hayot va axloq. Toshkent: "Fan" 1978.
14. Xayrullaev M. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001y.

15. Tulenova G. Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati // Sogʻlom avlod uchun. – 1998. - № 4. – B. 4 – 5.
16. Shermuhamedova N. Maʼnaviy barkamollik // Taʼlim.- 2009. -12 iyun № 23 (140).
17. Hasanov A. Yoshlar va milliy qadriyatlar // Muloqot. – 2000. - № 3. – B. 14 – 15.
18. Primov D. Taʼlim falsafasi yoki taʼlim-tarbiyaning metodologik masalalari. – T.: “fan va taraqqiyot”, 2014.

V. Davriy nashrlar statistik toʻplamlar va hisobotlar.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar

1. Qoʻchqorov R. Milliy gʻoya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining oʻquv dasturlarini takomillashtirish muammolari // Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy gʻoyani shakllantirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013.60-64-b.

“Sogʻlom avlod tarbiyasida maʼnaviyatning oʻrni” (Toshkent, Nishon Noshir, 2014) Respublika ilmiy-amaliy anjumani materillari toʻplamida quyidagi maqolalar chop etilgan:

1. Valiyev Sh. “Sogʻlom avlod tarbiyasida maʼnaviyatni oʻrni”, 232-bet;
2. Moʻminov Q. T. va Isoqboyev A.A “Orta maxsus kasb-hunar taʼlim mussasalari oʻquvchi yohlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari”, 443-bet;
3. Toʻraev S.X. va Turdiqulov N. “Sogʻlom avlod tarbiyasida maʼnaviy qadriyatlar”, 259-bet;
4. Muhammadiyev D.F. “Barkamol avlodning kamol topishida taʼlim uzluksizligining ahamiyati”, 168-bet;
5. Rahimova D. “Yoshlarni globallashiv muhitida tarbiyalash”.

**“Ommaviy madaniyat” – ma’naviyat kushandasi Respublika ilmiy-amaliy
anjumani materiallarida (Toshkent, “Muharrir”, 2013):**

1. Kenjaev Z. “Ta’lim tizimini isloh qilish – barkamol avlod tarbiyasining muhim vositasi”, 111-bet,
2. Nazarova Z. “Musiqqa “degradatsiyasi”ga qarshi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”, 81-bet.

VI. Internet saytlari

1. www.ziyo.net/uz
2. [www.milliy/ma’naviyat.uz](http://www.milliy/ma'naviyat.uz)
3. www.filosofia.ru
4. www.philosophy.nsc.ru
5. <http://vlibrary.freenet.uz>
6. namdumanaviyathttp://fikr.uz/
7. www.bilim.uz
8. www.history.ru
9. www.gow.uz